

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy – ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqib boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 29-iyul chorshanba №30(9615)



8-9-betlar

MAKTABNING JOZIBASI O'QUVCHI BILAN!

4-5-betlar



O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



O'z ustida ishlash – bu insonning o'zida yashiringan imkoniyatlarni kashf etish yo'lidir. Har bir insonning hali yuzaga chiqmagan qobiliyat, iste'dod va salohiyati bo'ladi. Ana shu yashirin qirralar tinimsiz izlanish, muttasil bilim olish, tajriba orttirish va mehnat orqali namoyon bo'ladi. O'z ustida muntazam ishlaydigan inson kechagidan bilimlir, kuchlir va o'ziga ishonchi balandroq bo'lib boradi. Zero, insonning eng katta raqibi ham, eng katta imkoniyati ham – o'zidir.

Sayyora YORQULOVA



O'tgan yili bitirgan o'quvchim qo'shni maktabga o'qituvchi bo'lib ishga joylashdi. Yana bir o'quvchim esa kelasi yili OTM-ni tamomlaydi. Xuddi men us-tozimga havas qilib o'qituvchilik kasbini tanlaganim kabi, ular ham kimlargadir havas qilib shu sharaflil kasbni tanlashgan.

Har kimning hayotda havas qiladigan insoni, o'ziga xos ibra-ti bo'ladi. Men esa pensiyaga chiqqandan keyin ham mehnat-dan to'xtamay, kuch-g'ayrati va ishtiyoqini yo'qotmagan, jamiyat-ga foyda keltirishda davom eta-yotgan insonlarga havas qilaman.

Murodjon UMAROV



Mulohaza



Rahmatli padari buzrukvorim otasidan juda erta yetim qolib, amakisi qo'lida ulg'aygan. Turli sabablarga ko'ra, amakisi otamni maktabga bermagan. Shu bois, otam uchun maktabda o'qish ushalmas orzuga aylangan. Yoshlikdan amakisining qo'y-qo'zilarini, keyinroq kolxoz va sovxoz chorvasini boqqan. O'zi maktabda o'qiyolmagani bois mening yaxshi ta'lim olishimni, armonini ro'yobga chiqarishimni juda istagan.

Shu sabab ham otam – Ro'zi bobo yaylovdan uyga qaytishi bilanoq vaqt topib maktabga borar, sinf rahbarim va boshqa fan o'qituvchilariga uchrab, o'qishim natijalari bilan qiziqardi. Buxoro, Qarshi, Kogon yoki Koson shaharlariga borsa, albatta, kitob do'konlarini topib, u yerdan xalq dostonlari va bolalarbop badiiy asarlar olib kelardi. Eng muhimi, ularni menga o'qitib, oxirigacha eshitar va ba'zida hikoyalarga munosabatini ham bildirar edi.

Sira esimdan chiqmaydi. Bir kuni gazetadan o'qib bergan hikoyam otamga yoqmad. Hikoyani o'qib tugatishim bilan birdan qoshini chimirib: *“Buni yozgan odam qo'y tugul, uning qiyini ham ko'rmaganga o'xshaydi. U qanaqa ahmoq cho'pon ekanki, kamida 500–600 bosh suruvni yaylovda beega qoldirib, yaralangan bir itni otga o'ngarib mol do'xtir qidirib ketsa?! Itni yarador qilgan jondor (otam negadir bo'ri so'zini irim qilib tilga olmasdi) galasi bilan kelib, butun boshli beega otarni qirib ketsa, nima bo'ladi? So'ng uni davlat omon qo'yadimi? Sho'rlik cho'pon dodini aytib, qayerga bosh urib boradi? Uning holiga maymunlar yig'lamaydimi keyin?*

Cho'ponlarga kundek ravshan: jondor boshqa hayvonlardan farqli ravishda doimo to'da-to'da bo'lib yuradi. Chorak soat ichida butun boshli otarning sho'rini quritadi. Yana jondor o'jarligi va o'ta qasoskorligi bilan hayvonlar qavmidan keskin farq qiladi. Asl va haqiqiy cho'pon bunaqa ahmoqona yo'l tutmaydi. Ota-bobolar udumiga amal qilib, yarador itga qo'yning dumbasini yediradi, tamom, vassalom. Dumba itga yetgan barcha jarohatlarni davolaydi...” deya achina ketdi. Keyinchalik tajribali veterinarlardan so'raganimda ular otamning gapini tasdiqlagan.

Otamning yagona orzusi meni muallimlikka o'qitish edi. Jurnalistika sohasiga o'qishga kirganimni aytganimda, boshini chayqagancha *“O'g'lim, bekor qilibsiz. Dunyoda eng yaxshi kasb – mallimlik. Bolalar bilan ishlay-san, g'iybatdan uzoq bo'lasan”* degan edi. Afsuski, bugun bu kasb asosan xotin-qizlar ishi bo'lib qolgan. Hamma zamonda ham erkak muallimlarning o'rni bo'lak. Gap kelganda shuni aytay, u zamonlarda muallimning o'rni, obro'-e'tibori juda yuqori edi. Ko'pchilik bu kasbga havas bilan qarardi...

Hamma vaqt ham niyat bilan hayot o'zaro uyg'unlashib ketavermas ekan. Kitobga ishqibozlik, badiiy so'zga muhabbat-u oshuftalik jurnalistikaga yetakladi. Bu sohada o'qishimga otam, yana tog'alarim ham qarshi chiqqan. Esimda, ulardan biri *“Nega, sen qadimiy an'anamizni buzding, fizika-matematika bo'yicha o'qimading?”* deya xafa ham bo'lgan. Boisi, barcha xesh-tabarlarim: bo'larlarim, tog'avachcha, amakivachchalarim ham fizika-matematika yo'nalishida tahsil olgan. Bularni eslashim boisi, o'quvchilarning fanlarni o'qib-o'zlashtirishi ham suyak surarkan-da, degan fikr o'tdi ko'nglimdan. Qizig'i shundaki, qishlog'imiz maktabida fizika-matematika fani o'qituvchilari juda ko'p edi. Hatto qo'shni qishloqlardagi maktablarning fizika-matematika fani muallimlarining aksariyati hamqishloqlarim edi.

Fikrimni bejiz otamning orzu-armonlari bilan boshlamadim. Ta'lim jarayoniga idrok ko'zi bilan qaralsa, inson kamolotida istaymizmi-yo'qmi, birlamchi jarayon – bu oila muhiti. Ana shu poydevor bolaning butun umriga mezon bo'ladi. Boisi, endi voyaga yetib kelayotgan navnihol bola yoki qiz uchun dastlabki ko'zgu ota-onasi bo'lsa, o'smir yigit yoki qiz uchun muallim kamolot ko'zgu bo'lib xizmat qiladi. Tafakkuri hali to'liq shakllanmagan o'smir yoshlar tevarakda kechayotgan voqealar va qulog'iga chalingan gaplarga ishonib yashaydi.

Nega bolalar o'qimayapti?

Nega bolalar kitob o'qimaydi!? Nega gazeta-jurnallarni varaqlashga ularda ishtiyoq tugul, zarracha toqat yo'q? Bu savolga siz ham, men ham, har kuni, har qadamda duch

TA'LIM HAYOTDEK

kalamiz. Ba'zan uchrashuvlarda ularga *“Kitob o'qimaysizlar, yopishib olganlaring faqat telefon!”* deb tanbeh ham beramiz. Goho qizishib ketib, ularning sustkashligini yuziga solib, loqayd va beparvoligidan yozg'irib, o'zimizcha maqtancholikka o'tamiz: *“Maktabda undiq o'qiganman, bundiq o'qiganman, nuqul a'lo baho olganman. Fan olimpiadalarining falon bosqichlarida qatnashganman”*, deya ko'krak mushtlab qolamiz. Erishgan yutuqlarimizdan g'ururlanib, tilimizni maqtanishdan tiya olmaymiz. Ammo istaymizmi-yo'qmi, har zamonning o'z talabi bo'ladi. U biz yaratgan qolipga doim ham sig'avermaydi. Farzandingiz yoki o'quvchingiz tasavvuringizdagi an'anaviy andozalarga begonaligini sizdan yashirib o'tirmaydi.

Tergovchilik va majburlashdan voz kechib...

O'g'lim bitta bo'lgani uchun biroz o'yinqaroq va erka edi. Kitob o'qish haqida gap ochsam, ensa qotirardi. Qarasam, ahvol jiddiy. Uyda tamoman televizordan voz kechib, kitob o'qishga o'tdim. O'g'lim doim qo'limda kitob ko'rdi. Kitobdan olgan taassurotlarim chehramdan aniq namoyon bo'lar, albatta, uning sezgir nigohidan chetda qolmasdi. Ertalab, kechqurunlari dasturxon boshida biron o'qigan kitobimdan qiziqarli bir voqeani aytishni boshlab, eng qiziq joyiga kelganida bir nimani vaj qilib hikoyani to'xtatardim. Bolada voqeaning davomini eshitish ishtiyoqi kuchayib, mendan oxirigacha aytib berishimni yalinib so'rashga tusha boshladi. Men yana nimalarnidir ro'kach qilib, *“O'zing o'qib ola qol, bolam”*, deya kitobni qo'lga tutqazardim. Bu hol uch-to'rt marta takrorlangach, uning o'zi noiloj kitobni o'qishga kirishdi. Shu tariqa ishtiyoqi ortib, asta-sekin o'zi mustaqil o'qiy boshladi. Bugun u texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent bo'lish bilan birga, badiiy asarlarga havasi ancha baland, yaxshi kitobxon. Endi u *“Ota, u kitobni o'qidingizmi? Bu kitobdagi voqealar bayoni negadir uncha asoslanmabdi”* deya o'z mushohadalarini aytib men bilan bahsga kirishadi. Demak, tergovchilik va majburlashdan voz kechib, o'zimiz ibrat bo'lishimiz kerak ekan.

Fanda masalaga to'g'ri yondashuv – aniq yechim degan tushuncha mavjud. Demak, bolalarning beg'ubor ko'ngliga ilm urug'ini sepish va uni bexato undirish biz uchun muhim sinov. Bundan uch-to'rt yil muqaddam hukumat qarori bilan bir guruh ijodkorlar mamlakatimiz maktablarida adabiyot targ'iboti bilan shug'ullanadigan bo'ldi. Chekinga Uchtepa tumanidagi 296-maktab tushdi. Jarayonda kuzatuvlarimga suyanib, shunday xulosaga keldim: boshlang'ich sinf o'quvchilari ustoziga qattiq ishonadi, unga bo'ysunadi, topshiriq-vazifalarini astoydil bajaradi. Ana shu pallada ustoz qobiliyati juda muhim. O'quvchilarda adabiyotga qiziqish uyg'otish imkoniyati juda katta. Boisi, ular faqat muallimni tan oladi.

5–7-sinflarda vaziyat ancha murakkab. Lekin ustoz qattiq harakat qilsa, qiyinchilikni bartaraf etishi mumkin. 8–11-sinfni faqat boy berilgan imkoniyat deyish mumkin. O'quvchilar xulqi o'ta murakkab. Ularda muayyan kino qahramoni yoxud mashhur qo'shiqchi hayotiga ko'r-korona taqlid juda yuqori...

To'garak guruhimda ikki qiz ancha faol edi. Ulardan ota-onasi haqida so'radim. Javoblardan biri:

“Oyim bilan adamning biz bilan gaplashishga sira vaqti yo'q. Ular kechki ovqatdan so'ng alohida xonaga kirib, eshikni qulflagancha faqat pul sanashadi. Qanaqadir raqamlarni qog'ozga tushirib, qayta-qayta hisob-kitob qilib, yakuniy xulosaga kelgunlaricha biz uxlab qolamiz...”

Angladimki, uning ota-onasi bozorda ishlaydi, dar-di-xayoli – pul. Bolaning aybi nima? Javob yo'q...

Bir bo'r va doska bilan

Beshinchi yo oltinchi sinfda o'qirdik. Fizika-matematika fani o'qituvchisi esdalik uchun rasimga tushamiz, deb qoldi. U kishi papkasidan fotoapparat chiqarib bizni suratga tushirdi. Hamkasbini chaqirib, o'zi ham biz bilan suratga tushdi. Haligi o'qituvchi sinfdan chiqa turib *“Domla, elektr quvvati bo'lmasa, suratni qanday ishlaysiz?”* deb qiziqdi. Muallimimiz kulimsirab, *“Bir yo'lini qilarman”* dedi unga javoban. Chindan ham oradan ikki-uch kun o'tib jamoa bilan tushgan suratimiz qo'limizga tegdi. Qarang, u plyonkalarini yuvish va rasmini qog'ozga ko'chirishni uddalab, qo'limizga surat tutqazdi. Qiziqib sababini so'raganimizda ustoz *“Mana tuganmas elektr manbayi”*, deya quyoshni ko'rsatganida biz o'quvchilar hayratlanib oftobga qarab qolgan edik. Darvoqe, ana shu amaliy ish sabab, sinfimizning o'ndan ortiq o'quvchisi fizika fani to'garagining faol qatnashchisiga aylangan va maktabni tamomlagach ham aksariyati matematika va fizika yo'nalishlarini tanlagan.

Pedagoglar orasida *“bir bo'r va doska bo'lsa, haqiqiy o'qituvchi bolalarni izidan ergashtira oladi”* degan o'ziga xos aqida bor. Aslida ham shunday. Haqiqiy muallim sinfda sahna yaratib, o'zi aktyorga aylana olsagina uning shogirdlari safi ortib boraveradi. Ta'limda boshqaruv tayanch nuqtasi hamisha muallim. Ammo Abdulla Oripov lutf etganidek, *“O'qituvchi bitta moyanasiga uzatayotgan qizining sepini qila olganda”* edi, manzara tamomila boshqacha bo'lardi. Xuddiki, yaponlar yoxud singapurliklarniki singari ularning hurmat-e'tibori joyiga qo'yilganda edi, Xorazmiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek va Navoiy izdoshlari tug'ilib, dunyo tamaddunida o'zbek o'z o'rmini tag'in to-paverardi. Bugun ustidan mag'zava ag'darayotgan sobiq jamiyatning istiqbolli ish tizimidan sog'lom aql bilan foydalanmay, tamomila yo'qotdik. O'rninga haligacha yangisini barpo etolmay jonhalakmiz. Bugun mushohada qilib ko'rsam, men o'qigan maktab vaqtida nafaqat Muborak tumanida, Qashqadaryo viloyatning g'arbiy hududidagi ta'lim muassasalari uchun ham fizika va matematika fanlari bo'yicha norasmiy tayanch maktab bo'lgan ekan. Qarangki, o'sha davrlarda Buxoro va Qarshi davlat pedagogika institutlarining aniq fanlar yo'nalishi fakultetlarida muboraklik yoshlar ko'pchilikni tashkil etgan.

Qator hayotiy misollarga tayanib shuni aytish mumkinki, o'quvchini fanga qiziqitiradigan asosiy tilsim faqat pedagogning chuqur bilimi emas, uning tashkilotchilik iqtidori, amaliyotga suyanishi, o'quvchi psixologiyasini vaqtida ilg'ash tajribasi, bolalar ko'ngliga yo'l topib ishlay olish singari qator fazilatlar majmuasi.

Ta'limdagi notenglik, pul ishlashga moyillik, aniqrog'i, bosim bilan ilm va ma'naviyat butunligini tijorat tomonga burish fojidan boshqa narsa emas. Qaysidir bir mamlakatning ta'limini tajriba sifatida joriy etish haqidagi tashabbus sirdan jozibali ko'rinsa ham, uning zamirida pul yuvish operatsiyasi yotadi, xolos. Ijtimoiy gumanitar fanlar zamon bilan hamnafas bo'lgani uchun balki yangilash, islohotga muhtojdir. Biroq matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlaridagi turg'un mavzularga nima o'zgarish va yangilik kiritilishiga sira aqlim yetmaydi. Axir bu fanlar mavzulari hamma joydayam bir xil-ku. Ta'limga tijorat aralashdimi, tamom, uning taqdiri pulga

Bolaga ham

Psixolog minbari

Bola tarbiyasi – murakkab, faxrli va mas'uliyatli vazifa. Maktabda bola tarbiyasi bilan hamma, birinchi navbatda esa sinf rahbari shug'ullanadi. Nega-ki, sinf rahbari o'quvchining eng yaqin murabbiysi, tarbiyachisi, aytish mumkinki, maktabdagi ota-onasidir. Bola ba'zida o'z ota-onasidan yashirib yurgan gapini, yuragidagi hayajonini sinf rahbariga aytadi. Shuning uchun ham sinf rahbari eng avvalo o'ziga qattiqqo'l, talabchan bo'lmog'i lozim.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ta'biricha, tarbiyalashning eng yaxshi usuli shaxsiy o'rnak ko'rsatishdir. Sinf rahbarining qiziqish doirasi qanchalik xilma-xil va keng bo'lsa jamoa ishining mazmuni ham, uning madaniy va ma'naviy darajasi ham shunchalik yuksak bo'lishi, bolalar ham ko'p narsaga qiziqishi va har tomonlama bilimli bo'lishi, shubhasiz. Shu jihatdan sinf rahbari olib borayotgan ishlar xususida to'xtalib o'tmoqchiman.

Bu voqea 2025-2026-o'quv yili boshida bo'lgan edi. 9-sinf o'quvchisi E. matematika fanidan o'zlashtira olmayotgani, bu fanni mutlaqo yoqtirmaganligi bizni tashvishga solib kelardi. O'quvchiga nisbatan talabchan bo'lishimizga qaramay u bilan til topisholmayotgan edik. Men amaliyotchi psixolog sifatida E.ning badiiy havaskorlik va rassomlikka qiziqishi, shahar *“Ochiq eshiklar kuni”*da badiiy havaskorlik ko'rigida faxrli o'rinni olganligi, darsdan keyin rasm va ashula xonasida berilgan topshiriqlarni sidqidildan bajarayotganligidan xabardor edim.

Darhaqiqat, o'quvchi nima uchun matematikadan o'zlashtira olmayotir? Shundan so'ng sinf rahbari bilan uning uyiga bordik. Hali eshikdan ichkariga kirmasimizdanoq E.ning uydagilar bilan tortishayotganligi eshitildi. U hadeb o'jarlik qilar, o'z aytganini o'tkazmoqchi bo'lardi. O'quvchining ota-onasi bilan suhbatlashdik. Ma'lum bo'lishicha, u o'ta o'yinqaroq, lekin bir ishni boshlaganda qunt va sabot bilan ishga kirishadigan bolalardan ekan. Buni uydagi devorlarda osig'liq suratlar-



HAMISHA BARDAVOM

tobe bo'lib qolaveradi. O'z o'rnida bu o'qituvchini ham moddiy manfaatdorlik sabab jonkuyarlik va fidoyilikdan uzoqlashtiradi. Ota-onalar iddaosi birinchi o'ringa chiqib, tomonlar o'rtasida ochiqdan ochiq ziddiyat vujudga keladi. Natijada tomonlar talabi va ular o'rtasidagi kurash sabab ta'lim sifatiga darz ketadi. Ma'lumki, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ta'lim to'lig'icha davlat tasarrufida. O'qish-o'qitish ishiga tijorat aralashishiga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.

Ko'rsatuv tayyorlash maqsadida "Qorako'l maktabi" nomi bilan mashhur ta'lim dargohiga boradigan bo'ldim. Maktab akademik litseyga aylantirilgan ekan. Aksariyat maktabda bolalar tushgacha o'qigani uchun rahmatli To'xtamurod aka Jumayevga qo'ng'iroq qilib vaziyatni tushuntirgan bo'ldim. U kishi hazil aralash "Xohlagan paytingiz kelaveringlar, ta'lim maskanimiz hamisha tayyor!" dedi. Tushdan so'ng akademik litseyga o'tdik... O'quvchilar qattiq imtihon asosida qabul qilinar ekan. Sinovdan o'tolmagani uchun rahbar hatto o'z nabirasini o'qishga qabul qilmabdi. Hamma "adolat" so'zini yaxshi ko'radi. Biroq hayotda uni amalga oshirish qanchalik azob?! Tasavvur qiling, boboning maktabiga nabira o'qishga kirolmadi. Avval kampir oyoqqa turadi, izidan pushti kamaridan bo'lgan o'g'li va uning xotini junbushga keladi. Oilada qarama-qarshilik, ziddiyat... Har xil qochirim va kesatig gaplarni o'z oila a'zolarindan eshitish...

Har tugul boboni tushungan nabira o'z so'zini aytibdi: *"Bobom emas, men aybdorman. Yalqovlik qildim, erinchog'ligim tufayli kerakli dasturni o'zlashtirolmadim"*. Nabiraning qat'iyyati, bobosini to'g'ri tushunib, uni hi-moya qilishi vaziyatni ancha yumshatibdi...

– O'shanda irodasizlik qilganimda bormi, vaziyat tamoman boshqacha tus olardi. Ertasiga o'rinbosarlarim, boshqa ustozlar ham qing'ir ishga qo'l urishi aniq edi. Tilim qisiqligi uchun ularga inday olmasdim. Bunaqa ziddiyatli, gohida kulgili holatlar hayotimda ko'p bo'lgan, – deya so'lg'in bir jilmayish bilan To'xtamurod aka gurgungida davom etdi. – Bir kuni ish kabinetimga kirsam, o'rindig'imda bo'yinbog' taqqan, chiroyli kostyum-shim kiygan ziyolinamo bir odam o'tiribdi. Boshida yuqoridan o'rnimga boshqa odamni jo'natishibdi-da, degan xayolga

ham bordim. Biroz ikkilanish-u hadik bilan salom berib, u kishiga yaqinroq o'rindiqdin joy oldim. Ikkilanibroq choy damlab kelaymi, dedim. Men yeb u quruq qolgandek, qovog'ini uygancha "Boshqa vaqt", deya maqsadga o'tdi. "Maktabingizda yaxshi o'qitarmish. Shuni eshitib keldim. Bizning toychoq ham shu yerda o'qishi kerak!" dedi kutilmaganda. Uning muomalasidan ensam qotib, "Bu yerda toychoqlar emas, odam o'qiydi", dedim atay o'zimni an-qovlikka olib.

– Men uni erkalab "toychoq'im" deyman, u shu yerda o'qishi kerak, bildingizmi?

– Qarshi emasman, imtihondan o'tsa, bo'ldi, bemalol o'qiyversin, dargoh keng.

– Sen kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi? – deya o'dag'aylagancha birdan senlashga o'tdi. Mendan ancha yosh bo'laturib, sensirashi jahlimni qo'zitgan bo'lsa ham bosiqlik bilan "Bizda kirish imtihonlari bor. Shundan o'tgan bolalar o'qiydi", deganimni bilaman, haligi kishi birdan tutaqib ketdi. "Aytib qo'yay, agar o'g'lim o'qishga kirmasa, o'zingni turmada ko'rasan. Qamoqda chiritaman! Gap tamom, vassalom!" deya ovozi yana balandlatdi. Unga javoban "Qismatinga qamoqda yotish ham bitilgan bo'lsa, peshonadagini ko'raveraman", dedim. "Men bilan o'chakishma, so'ng o'zingga jabr bo'ladi, bildingmi?" deya o'rnidan endi qo'zg'algan edi, shu payt eshikda kotiba qiz ko'rinib berdi. "Sizni pastda viloyat hokimi kutayotgan ekan". Chaqirilmagan mehmonga bir qarab qo'ydim-da, o'rnimdan turdim. Tezda hovliga tusha boshladim. Viloyat hokimi oldindan ancha qadrdonligi uchun men bilan bag'irlashib ko'risharkan, "To'xtamurod aka, vaqti-soati kelib shogirdlaringizdan bittasi ana shu favvora yoniga byustingizni o'rnatishiga ishonaman", dedi jilmaygancha. U kishining gaplariga kulimsirab, "Hokim bobo, ungacha qamalib ketmasam bo'ldi ishqilib" dedim. Javobimdan ajablangan hokim "Ha domla, tinchlikmi, tushunmadim?" deya menga savolomuz qaradi. Xonada bo'lib o'tgan voqeani aytuvdim, "Yuring, qani ko'raylik-chi, u valomat kim ekan?" deya men bilan xonagacha birga chiqdi. Biroq xonada hech kim yo'q edi. Haligi olifta allaqachon juftagini rostlab qolgan ekan.

Ertasi kuni kelsam, u bu gal qabulxonada o'tiribdi. Ensam qotsa-da, sir bermay, jilmaygancha "Nega o'z kursingizga borib o'tirmadingiz?" dedim ajablangan bo'lib. Oliftaning kechagi shashtidan asar ham yo'q edi. Qarshimda havosi chiqqan shardek shalvirab turardi. "Kecha sizga noo'rin gapirdim, xijolatdaman. O'g'lim bu yerda o'qiy olmas ekan", deya qayta-qayta kechirim so'rab, chiqib ketdi, – degan edi Xalq o'qituvchisi, rahmatli ustoz To'xtamurod Jumayev suhbatlaridan birida.

Darvoqe, bu gap rost. Qishlog'im bilan Qorako'l tumanining orasi qariyb 180 kilometr. Ba'zi ota-onalar bolasining ertasini o'ylab, avval o'sha yerdagi tayyorlov kursida, keyin akademik litseyda o'qitishgan. Ana shu maskanda tahsil olgan o'quvchilarning aksariyati nufuzli OTMlarni tamomlab, hozir xalq xizmatida.

Ota-onalarning katta xatosi

Ustoz To'xtamurod Jumayev Toshkentga ish bilan kelganida uchrashib qolsak, gurgungimiz o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya haqida bo'lardi. Shunday suhbatlarning birida u kishi *"Ota-onalarning katta xatosi – bolasini azbaroyi qattiq yaxshi ko'rganidan og'ziga tayyor baliqni tutishi. Undan ko'ra qarmoq tutqazsa, bolaning o'zi harakatga keladi. Samarasi o'n chandon yuqori bo'ladi"* degandi.

1964-yil qishi o'ta qattiq keldi. Ayniqsa, ayozli yanvar oyida tinimsiz yoqqan qor-izg'irindan muzlagan yer toshdek qattiq. Tabiatning bu sinovi odamlarni elavratib qo'ydi. Uchinchi sinfda o'qirdim. Rahmatli enam maktabdan kelishimni poylab turardi. Kelib bir nima yeyar-yemas, o'rtaq hajmdagi bolta bilan arqonni olib o'tin chopishga jo'nardim. Majburman. Qani yulg'un? Odamlar chopaverib juda siyraklashib qolgani kamlik qilgandek, yulg'unlarning uzunligi tizzamgayam yetmaydi. Otam o'sha yili Muborak cho'llari qup-quruq bo'lgani uchun davlat chorvasi bilan yavlov izlab Uchquduq va Tomdi tomonlarga ketardi. Uydagi yagona erkak men – 9 yashar bola. Qashqadaryo bo'ylaridagi yakkam-dukkam butalarni chopib to'plab turaman. Sho'rlik enam qo'shni-ni aravasini eshakka qo'shib izimdan boradi. Ikki-uch quchoq o'tinni aravaga yuklab uyga qaytamiz. Kelishimiz bilan bir qismiga onamiz tandirni qizdirib non yopsa, bir qismi pechkaga ishlatiladi. Shu bahona pechka ustidagi qora qozonda yovg'on pishadi va yonidagi chovgum qaynaydi. O'tinning ozginasi ertalab choy qaynatishga qoldiriladi. O'sha yillardagi og'ir va mashaqqatli kunlarda o'zimga ruhiy kuch-quvvat, yupanch va taskinni "Lenin uchquni" (hozirgi "Tong yulduzi") gazetasi, "Gulxan" va "G'uncha" jurnallaridan topganman.



Ochil TOHIR,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Qishlog'imizda elektr toki yo'qligi uchun televizorni hatto tasavvur ham qilolmasdim. Radiolar qishloqda to'rt-beshta odamning uyida bor edi, xolos. Bu matoh biznikida yo'qligi bois, uni eshitishdan mahrum edim. Radioda bolalar uchun ertaklar berilishini sinfdoshlarimdan eshitib, enamga yalinib-yolvorib qo'shninikiga borib, bir-ikki marta radioertak eshitganim yodimda.

Betakkor ta'limi bilan dunyoga ibrat bo'lib kelayotgan Yaponiyada bolaning xulq-atvori, tarbiyasi uchun ota-ona javobgar ekan. Bizda ham shunga yaqin harakatlar yo'q emas. Biroq samarasi juda sust.

Chamasi yettinchi yo sakkizinchi sinfda o'qirdim. Oilada bitta erka o'g'il bo'lganim bois mening ko'ngil-ra'yim betizginroq bo'lgan. Bir kuni sinf rahbarim meni qattiq jazoladi. Adolatsizlik bo'lib tuyulgan bu holatdan norozi bo'lib, otamga shikoyat qildim. Gaplarimni eshitgan otam ko'zlarimga jiddiy tikilib, "Narzullaning (rahmatli ustozimning ismi) menga hech qanday xusumati yo'q. Biron gunoh qilgandirsanki, u seni jazolabdi. Aytib qo'yay, yana qaytib shikoyat qilsang, qolgan haqini mendan olasan", deya urishib bergandi.

To pensiyaga chiqqunimga qadar respublika televideniyesining "O'zbekiston", "Mahalla" kanallarida ta'lim yo'nalishida ko'rsatuvlar tayyorlaganman. Kasb taqozosi bilan yurtimizdagi ko'plab o'quv dargohlarida bo'lishimga to'g'ri kelgan. Bir kuni poytaxtdagi nufuzli akademik litseyga bordik. Qabulxonada polvonkelbat yigit xo'mraygancha boshini quyi solib o'tirardi. Kotibaga direktor bilan uchrashmoqchi ekanimni aytuvdim, u rahbar oldiga kirishimni aytdi. Ichkarida rahbar qoshida bitta gavdali ayol va uning tamoman aksi bo'lgan ozg'ingina ayolga duch keldim. Baq-baqaloq ayolning qo'lini paxsa qilgancha beandishalarcha gapirayotgan gap-so'zidan anglashimcha, bu haligi gavdali yigitning onasi edi. Qarshisidagi ozg'ingina nimjon ayol esa fizika fani muallimasi ekan. Qabulxonada o'tirgan "jabrdiyya" polvon yigit ana shu muallima ustidan onasiga borib shikoyat qilibdi. Judayam ayanchli va kulgili manzara... Rahbar haligi onani ancha mulzam qilib jo'natib yubordi. Onasining izidan buzoqdek ergashgan bolaga qarab, "yigit bo'l, bolam!" deb qo'ydi. Onasi uning yonini olib, hadeb papalab o'tirsa, bola ertaga nima bo'ladi? Uning kelajakdagi o'qishi, hayoti, taqdiri qanday kechadi? Ustozlar-ku o'n-o'n ikki yilni amal-lab o'tkazib, bunaqa go'rso'xtalardan qutulishi mumkin, biroq ota-onasi-chi? Bir umr uning azobini tortishga majbur bo'lmaydimi?

Tirikchilik inson hayotiga doxil tushuncha. Savod esa tamoman boshqa narsa, aniqrog'i, millat butunligi uchun siyosiy strategik masala. Aynan shu masalani mam-lakatimiz misolida ko'rib, buguni va ertasi haqida mushohada qilaylik. Ta'lim millat ravnaqi va uning ma'rifiy ehtiyojiga qanchalik xizmat qilayotgani ko'z o'ngimizda namoyon bo'la boshlaydi. Bu borada jarga qarab qulash boshlangani haqida kuyinchaklik bilan yozilmoqda, aytilmoqda. Lekin og'ir suvot va jimjitlik hanuz pinak buzmayotgani juda-juda xavotirli...

Hayajon-u ehtiroslardan tiyilib, xalqimizning dono maqolini eslaylik – qars ikki qo'ldan! Voyaga yetib kelayotgan o'smir va yoshlar bitta qo'l bo'lsa, javob tarzida qarsillashini ta'minlaydigan ikkinchi qo'l kim? Ota-onami, ustoz-o'qituvchilarni yoxud ko'p hollarda mas'uliyatdan chetdagi ta'lim dargohlarimi yoxud hukumat?

Nazarimda, uzluksiz ta'limning jon tomiri – yakdillik, ustozlarning o'quvchilar bilan astoydil ishlashi, ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga mas'uliyati! Ta'lim dargohlari va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasidagi aniq maqsadlar yo'lida musharaklik! Demak, tomonlar hamkorligi suv va havodek zarur.

muomala kerak

dan ham bilsa bo'lardi. E. qobiliyatli havaskor rassom edi.

– Bu ishing yaxshi, – dedim men amaliyotchi psixolog sifatida. – Lekin matematikadan o'zlashtira olmaganing yomon. Bilasanmi, sen yaxshi ko'rgan buyuk rassomlar yaxshi bahoga o'qishgan. Shuning uchun ham ularning chizgan suratlari keyinchalik mashhur bo'lib ketgan.

Bundan keyin ham E. bilan bir necha marta suhbat olib bordik. 9-sinf rahbari Dilfuza Xo'jayeva shunga erishdiki, E. har qanday kasbda ham matematikani bilish nihoyatda zarur ekanligiga ishonch hosil qildi va ko'p o'tmay yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar qatoridan joy oldi.

Psixologlar ta'kidlaganidek, bolaning katta-kichik tashvishi, qayg'u-hasrati, g'ami, baxtsizligi bo'ladi. Yuksak tuyg'u madaniyatiga ega bo'lgan tarbiyachi bolaning kayfiyati va noxushligini darhol fahmlaydi. Bu avvalo uning ko'zidan bilinadi. Buni fahmlagan sezgir tarbiyachi nima bo'lganini darhol surishtirmaydi. U bola ko'nglidagi tashvishni sezganligini qanday yo'l bilandir ma'lum qilish yo'lini topadi... Darhaqiqat, har bir sinf rahbari bola qalbiga yo'l topa bilishi, uning ichki hayajonini, qiziqishi va istaklarini tushunishi kerak. Shuningdek, u o'quvchilar oldida "qarz" bo'lib qolmasligi, ular oldida bergan va'dasi ustidan albatta chiqishi kerak. Shundagina bolalar o'z tarbiyachisini yaxshi ko'radi va o'z dardini aytishdan tortinmaydi.

Sinf rahbari dastlab ishni o'quvchilarda jamoa tushunchasini hosil qilishdan boshlamog'i lozim. Shu sababli "Bolalarni qachon ahil jamoa deyish mumkin?", "Jamoa sharaflini saqlash nima?", "Men do'stlikni qanday tushunaman?" kabi mavzularda ertalik va bahs-munozaralar uyushtirdik.

Ana shundan ko'rinadiki, bolaga ham muomala kerak. Oilada ham, maktabda ham ularning qalbiga yo'l topib, muomala qilsak yaxshi gapimiz xalq maqollari-da aytilgandek, bolaga "jon ozig'i" bo'lib singaveradi. Qolaversa, bu bilan biz unga o'rnak ham bo'lamiz.

Madina MUHIDDINOVA,
Jizzax shahridagi
19-maktabning amaliyotchi psixologi



Intervyu

MAKTABNING JOZIBASI O'QUVCHI

Arofat Sheraliyevani respublikadagi ko'plab pedagoglar yaxshi taniydi. Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan pedagogning Instagram sahifasida qariyb 70 ming kuzatuvchisi bor. YouTube'dagi videolari ham keng auditoriya tomonidan tomosha qilinadi. Asli andijonlik, ammo pedagogik faoliyatini Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 45-maktabdan boshlagan. Ko'pchilik uchun u **"Arofat malim"** nomi bilan mashhur.



Ayni paytda u **"Teach for Uzbekistan"** loyihasi ishtirokchisi. Shuningdek, sentabr oyidan boshlab UNESCOning **"Ishonch ustozlari"** loyihasida mentor sifatida faoliyat boshlaydi.

– **Arofat opa, sizni xalqaro ta'lim eksperti sifatida yaxshi bilamiz. Shubhasiz, bugun maktab, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi uyg'unlik dolzarb. Sizningcha, ushbu uchlik o'rtasidagi mutanosiblikni ijobiy baholash mumkinmi? Ular o'rtasida aslida qanday munosabat bo'lishi kerak?**

– Bugungi kunda maktab, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni ko'ngildagidek deb ayta olmayman. Bu uchlik o'rtasidagi munosabatlarda ijobiy o'zgarishlar ham bor, lekin hali muvozanat to'liq shakllanmagan. Afsuski, ayrim hollarda bu munosabatlarda hamkorlikdan ko'ra, bir-birini ayblash, mas'uliyatni boshqa tomonga yuklash va sovuq bo'shliqlar ko'proq kuzatiladi. "Kim birinchi qo'l cho'zadi?" degan savol esa hanuz ochiqlicha qolmoqda. Aslida esa bu uchlikni uch oyoqli stulga qiyoslash mumkin. Uning bir oyog'i zaiflashsa, butun tizim izdan chiqadi. Shuning uchun har bir bo'g'in o'z vazifasini aniq anglashi va mas'uliyat bilan bajarishi zarur.

Maktab, eng avvalo, sifatli ta'lim berish va olish uchun qulay, o'quvchi uchun xavfsiz hamda rivojlantiruvchi muhit yaratilgan makon bo'lishi zarur. O'qituvchi esa shu jarayonning asosiy ijrochisi sifatida kasbiy jihatdan erkin bo'lishi, ortiqcha byurokratik yuklardan xoli holda o'z salohiyatini to'liq namoyon qila olishi lozim.

Eng muhimi, bu tizim markazida maktab rahbariyati ham, o'qituvchi ham emas, aynan o'quvchi turishi kerak. Qabul qilinayotgan har bir qaror, joriy etilayotgan har bir islohot va tashkil etilayotgan har bir jarayon bolaning manfaatiga xizmat qilishi zarur. Chunki ta'lim tizimidan asosiy maqsad ham

barkamol, mustaqil fikrlaydigan va baxtli avlodni tarbiyalashdir.

– **Ba'zan o'quvchilarning maktabga, o'qituvchilarning esa o'z kasbiga bo'lgan mehrini saqlab qolish haqida ko'proq o'ylashimiz kerak, nazarimda. Albatta, bu mening shaxsiy fikrim. Sizningcha qanday?**

– Ha, bugun biz o'quvchilarni maktabdan, o'qituvchilarni esa kasbidan sovutib qo'yayotgandekmiz. Ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi bilan o'quvchi istalgan ma'lumotni bir necha soniyada topa oladigan bo'ldi. Afsuski, ta'lim tizimi ham, pedagoglarning ko'p qismi ham bu yangi haqiqatga moslashishga ulgurmagani. Endi o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, o'quvchini ta'limga jalb qila oladigan, ilhomlantiradigan va tanqidiy fikrlashga yo'naltiradigan shaxs bo'lishi kerak. Bunda pedagoglarda o'z ustida ishlash va zamonaviy metodlarni o'zlashtirishga ehtiyoj bor. Tizimning vazifasi esa buning uchun kerakli sharoit yaratish. Afsuski, ko'pincha tizim o'qituvchini rivojlantirishdan ko'ra, uning motivatsiyasini so'ndirishga xizmat qilib qolayotgandek taassurot uyg'otadi. Natijada maktab o'quvchi uchun jozibadorligini, kasb esa o'qituvchi uchun ma'nosini yo'qotish xavfi bilan yuzlashmoqda. Menimcha, bugun aynan shu masala eng jiddiy muhokamaga loyiq.

– **Erkak o'qituvchilarning maktabda kamayib ketgani masalasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Sizningcha, bu muammoning asosiy sabablari nimada va uni qanday hal qilish mumkin?**

– Bu faqat maosh masalasi emas. Erkaklar o'z kasbida rivojlanish, mustaqil qaror qabul qilish va mehnatining qadrlanishini ham istaydi. Afsuski, ta'lim tizimi uzoq yillar davomida o'qituvchidan tashabbuskor mutaxassis emas, ko'proq topshiriq bajaruvchini yasashga urindi. Bunday muhit esa iste'dodli kadrlarni ushlab qololmaydi. Yana bir muhim omil – jamiyatning o'zi ham

erkak kishi uchun o'qituvchilikni yetarlicha nufuzli kasb sifatida ko'rmay qo'ydi. Natijada ko'plab salohiyatli yigitlar boshqa sohalarni tanlayapti.

Menimcha, erkaklarni maktabga qaytarish uchun avvalo o'qituvchilik kasbini qayta jozibador qilish kerak. Kasbning nufuzi, erkinligi, rivojlanish imkoniyati va munosib qadri tiklanmas ekan, bu tafovutni bartaraf etish qiyin bo'ladi. Maktabda ayol va erkak pedagoglar sonining uyg'unligi esa bolalar tarbiyasi uchun ham muhim.

– **Nazarimda maktablarda o'quvchilar bilan birga o'qituvchilar uchun ham professional psixologik yordam zarurdek?**

– Maktabda har bir o'qituvchi va o'quvchi bilan psixolog ishlashi kerak. Aslida bu vazifani bajarishi kerak bo'lgan mutaxassislar ham bor – psixologlar. Endi ularga maktab maslahatchilari ham qo'shilgan. Ammo muammo mutaxas-

sonchilikning unga bo'lgan munosabati o'zgargan. Bugun ta'lim tizimida bolalarga nisbatan har qanday zo'ravonlik qonunan taqiqlangan va bu juda muhim yutuq. Endi asosiy vazifa bu taqiq faqat hujjatlarda qolmasligi, shu bilan birga har bir maktabning kundalik madaniyatiga aylantirish lozim.

Bilasizmi, yaqinda Instagram sahifamga bitta video joylagandim. Unda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muammolarning asl manbasini oddiy usul bilan aniqlash mumkinligini aytdim. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlarga kirasiz, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyat aks etgan istalgan video ostidagi izohlarga qaraysiz. Kim ko'proq tajovuzkor fikr bildirayotganiga yaxshilab e'tibor bering. Shaxsan men hali biror o'quvchining "o'qituvchini urish kerak" kabi pedagogga nisbatan zo'ravonlikni oqlovchi izoh yozganini deyarli uchratmaganman. Aksincha, o'quvchilarga

"Ta'limdagi ko'plab muammolar, hatto jamiyatdagi ayrim ijtimoiy muammolarning ildizi zo'ravonlikka asoslangan ta'lim va tarbiya muhitiga borib taqaladi. Shu sabab faoliyatimning asosiy yo'nalishi sifatida zo'ravonliksiz ta'limni targ'ib qilishni tanladim. Ishonamanki, maktabdagi munosabatlarni o'zgartira olsak, kelajakdagi jamiyatni ham o'zgartirishimiz mumkin".

sislarning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanmayotganimizda. Agar biz ularning vazifalarini aniq belgilab, amaliy faoliyatga tayyorlasak hamda ortiqcha hujjatbozlik va jadvalbozlikdan xalos qilsak, bolalar ham, pedagoglar ham duch kelayotgan ko'plab psixologik muammolarning oldini olish mumkin bo'ladi. Xususan, zo'ravonlikning ham.

– **Ta'limdagi zo'ravonlik avvallari qanday ko'rinishda namoyon bo'lgan? Bugungi kunda uning shakllari o'zgarganmi?**

– Afsuski, ta'limdagi zo'ravonlik yangi hodisa emas. Avvallari ham jismoniy, psixologik, verbal, noverbal, hatto jinsiy zo'ravonlik holatlari uchragan. Shuning uchun zo'ravonlikning shakli tubdan o'zgardi, deyish qiyin. Tan olish kerak, ilgari o'qituvchining qattiq qo'lligi ko'pincha ijobiy sifat deb baholangan. Natijada ayrim pedagoglar hanuzgacha intizomni qo'rquv yoki bosim orqali ta'minlash mumkin, degan qarashdan voz kecha olmayapti. Vaholanki, bugungi zamonaviy ta'limning asosiy tamoyili hurmat, ishonch va hamkorlikka tayanadi.

Menimcha, zo'ravonlikning qanday ko'rinishda namoyon bo'lishi ko'proq zo'ravonning o'z emotsiyalarini qay darajada boshqara olishiga bog'liq. Shuningdek, hozir zo'ravonlikni oqlash usullari vaqt o'tishi bilan o'zgarib bormoqda. Bir paytlar "bola tarbiyasi uchun" yoki "foydasi uchun" deyilsa, bugun "tasodifan bo'ldi", "asabiylashib qoldim" yoki "emotsiyaga berildim" kabi bahonalar ko'proq uchraydi. Aslida esa zo'ravonlik emas, jamiyat va

nisbatan zo'ravonlikni oqlovchi yoki qo'llab-quvvatlovchi izohlar ko'proq uchraydi. Nazarimda, bu jamiyatimizda o'qituvchiga nisbatan hurmat hali ham saqlanib qolganini, biroq o'quvchining huquq va qadr-qimmatiga nisbatan munosabatni o'zgartirishimiz kerakligini ko'rsatadi.

– **Fikrlaringizdan kelib chiqib aytish mumkinki, bu kabi masalalarda ota-onalarning ham vazifasi muhim. Ota-onalar majlisi yoki ular bilan ishlash amalda qanday muammolarni hal qila oladi va uning samaradorligini oshirish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?**

– Ochiq aytaman, maktabda bolalarga dars berib ularni kuzatgandan keyin, telefonda ularning ota-onalariga ham yana qayta dars o'tishimizga to'g'ri keladi. Bu biz uchun biroz murakkab jarayon...

Ota-onalar majlisi shunchaki hisobot berish yoki baholarni muhokama qilish uchun emas, balki bola manfaatiga yo'lida maktab va oilaning hamkorligini yo'lga qo'yish uchun xizmat qilishi kerak. Buni bizdan tashqari ota-onalar ham chuqur anglashi lozim. Chunki natijaga bola bilan faqat maktabda ishlash orqali erishib bo'lmaydi. Uning maktabdagi xulqi, o'qishga munosabati va emotsional holati ko'p jihatdan oiladagi muhit bilan chambarchas bog'liq. Shu sabab ota-ona bilan samarali hamkorlik ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi.

Masalan, bolada intizomni shakllantirishda oiladagi namuna, emotsional barqarorlikni ta'minlashda ota-onaning munosabati, ijtimoiy tarmoqlardan me'yorida foydalanish odatini shakllantirishda esa maktab va oilaning bir xil pozitsiyada bo'lishi juda muhim.



BILAN

– “Eng yomon” yoki “eng qiziqmaydigan” o‘quvchilarni ham darsga va maktabga qiziqitira oladigan samarali metod yoki texnikalar bormi?

– “Eng yomon o‘quvchi” degan tushuncha yo‘q men uchun. Chunki yomon bola bo‘lmaydi, faqat tushunilmagan, ehtiyoji to‘g‘ri anglanmagan yoki ta‘lim jarayoniga jalb qilinmagan bola bo‘ladi.

Doim bir fikrni aytaman: hech narsa qiziqmaydigan o‘quvchining eng qiziqadigan mavzusi – uning o‘zi. Shuning uchun “eng qiziqmaydigan” o‘quvchini darsga jalb qilishning universal retsepti yo‘q. Ammo deyarli har doim natija beradigan bitta yondashuv bor: uning hayotiy kechinmalari, qiziqishlari, tuyg‘ulari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularga bog‘lab ta‘lim berish.

Agar bola dars mazmunida o‘zini ko‘ra olsa, o‘rganayotgan bilimining hayotiga daxldorligini his qilsa, uning ta‘limga bo‘lgan munosabati ham o‘zgaradi. Shu sabab o‘qituvchining eng muhim mahorati darsni kitobga emas, bolaga moslashtira olishidir. Ana shunda “qiziqmaydigan o‘quvchi” degan tushuncha tobora o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

– Bugun ayrim yoshlar orasida “baho hech narsani hal qilmaydi” degan qarash uchraydi. Umuman olganda, baho nimani hal qiladi yoki nimani hal qila olmaydi?



– Menimcha, maktabda baho nimanidir hal qilishi kerak emas. Baho – yakuniy natija emas, rivojlanish ko‘rsatkichi. U, bir tomondan, pedagog o‘z vazifasini qanchalik samarali bajarganini, ikkinchi tomondan esa o‘quvchi mavzuni qanchalik o‘zlashtirganini aks ettiradi.

Baholashning asl vazifasi xulosa chiqarish va keyingi harakatlarni rejalashtirishdir. Ya‘ni qayerda kamchilik bor, nimani o‘zgartirish kerak va qanday yordam zarur – baho aynan shuni ko‘rsatishi kerak. Agar baho taqdiri hal qiladigan vositaga aylansa, uning ortidan sun‘iy baholar poygasi, baho uchun o‘qish va hatto bahoni manipulyatsiya qilish holatlari ham rivojlanadi. Bunda ta‘limning o‘zi emas, raqam muhim bo‘lib qoladi. Shuning uchun, menimcha, avvalo o‘quvchilarga ham, ota-onalarga ham baholashning asl mohiyatini tushuntirishimiz kerak. Baho maqsad emas, rivojlanish yo‘lini ko‘rsatadigan qayta aloqadir.

– Pedagoglar uchun motivatsiya manbayi bo‘la oladigan 5 ta amaliy tavsiya bera olasizmi?

1. Nasihatni yolg‘iz, maqtozni esa



Fayoz AVLAYEVA
“Ma‘rifat” muxbiri

jamoada oldida aytib. Inson o‘zi haqidagi yaxshi fikrlarni uzoq vaqt, ba‘zan esa bir umr eslab qoladi.

2. O‘quvchi xato qilganida uning qadr-qimmatini va obro‘sinini saqlab qolishiga imkon bering. Chunki uning xatosiga bildirgan munosabatingiz sizga, darsga va umuman ta‘limga bo‘lgan munosabatini ham belgilaydi.

3. Chegaralarni belgilang. O‘qituvchi o‘z hissiy energiyasini asray olmasa, uni o‘quvchilariga ham bera olmaydi. Dam olish ham kasbiy mas‘uliyatning muhim qismidir.

4. O‘zingizni hurmat qiling. Siz jamiyatdagi eng muhim kasblardan birining egasiz. Nafaqat pedagog, balki bolalar uchun o‘rnak, modelsiz.

5. Shuni unutmang: o‘quvchi – bola, ota-ona esa pedagog emas. Siz esa bu jarayonning mutaxassisiz. Shuning uchun ulardan xafa bo‘lishdan oldin ularning bilim va tajribasi siznikidan farq qilishini eslang.

– O‘zbekistonda ta‘lim sifatini oshirish uchun eng muhim deb hisoblagan taklif yoki tavsiyangiz qanday?

– Bu borada quyidagi qator takliflarni bergan bo‘lardim:

• **O‘qituvchilarni baholash tizimini qayta ko‘rib chiqish.** Baholash yodlangan ma‘lumotlar asosida emas, pedagogning amaliy malakasi, metodik mahorati va o‘quvchiga ta‘sir ko‘rsata olish kompetensiyalari asosida tashkil etilishi kerak.

• **O‘qituvchilarni munosib rag‘batlantirish.** Rag‘bat faqat moddiy emas, balki kasbiy e‘tirof, rivojlanish imkoniyatlari va ishonch orqali ham namoyon bo‘lishi lozim.

• **Akademik erkinlikni kengaytirish.** O‘qituvchi metod tanlashda, darsni tashkil etish va ijodiy yondashuvlarni qo‘llashda ko‘proq mustaqillikka ega bo‘lishi zarur.

• **Tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash.** Ta‘lim tizimida yangicha g‘oya va innovatsiyalar cheklanmasligi, aksincha, rag‘batlantirilishi kerak.

• **Ta‘lim natijasini qayta talqin qilish.** Muvaffaqiyatni faqat test ballari yoki baholar bilan emas, balki o‘quvchining shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi bilan ham baholashimiz kerak.

• **Zo‘ravonliksiz ta‘lim muhitini yaratish.** Bola xavfsiz, hurmat qilingan va qadrlangan muhitdagina to‘liq rivojlanadi. Shuning uchun zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishiga mutlaqo muvofiq munosabat ta‘lim sifatining ham muhim shartidir.

Globalashuv va raqamli texnologiyalar shiddat bilan kirib kelgan bugungi davrda sinfxona ostonasini hatlab, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi sifatida qarshimda turgan vizual avlodga boqar ekanman, qalbimni ham hadik, ham ulkan bir mas‘uliyat hissi chulq‘ab oladi.

Qo‘lidagi so‘nggi rusumdagi smartfonga butun diqqat-e‘tiborini qaratgan, “YouTube” va “TikTok” trendlari bilan ulg‘ayayotgan beshinchi yoki oltinchi sinf o‘quvchisini bugun shunchaki “Alpomish mana bunday mard bo‘lgan” deb qiziqitirish, tan olish kerak, juda murakkab vazifaga aylandi. Ular “Marvel” olamining to‘qima qahramonlarini yaqin do‘stidek yaxshi tanishadi, chunki ular bugungi bolaning ko‘ziga juda chiroyli qadoqda va rang-barang vizual effektlar bilan taqdim etilmoqda. Biz esa uzoq yillar davomida millatning ma‘naviy va axloqiy poydevori bo‘lib kelgan xalq og‘zaki ijodini sinfxonalarda faqatgina



Nargiza YO‘LDOSHEVA,
Davlatobod tumanidagi
58-maktab o‘qituvchisi

da undagi kichik akaning topqirligi va murakkab vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatini bugungi zamonning “muammolarni hal qilish” ko‘nikmasi yoki kreativlik kontseptsiyasi bilan bog‘lab tushuntirsak, o‘quvchining ko‘zida qiziqish uchunlari yonadi. Ertak shunchaki o‘tmish afsonasi bo‘lmay, bugungi kunda qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkinligini ko‘rsatuvchi jonli qo‘llanmaga aylanadi. Xuddi shuningdek, ming yillik maqol va matallari-

Genetik kod uyg‘onishi:

raqamli avlod qalbiga yo‘l

yodlanishi kerak bo‘lgan quruq qoidalar, chang bosgan arxiv matnlari sifatida o‘rgatib keldik. Xalq og‘zaki ijodi muzlatib qo‘yilgan muzey ekspozitsiyasi emas, balki tirik, nafas olayotgan va bugungi kun bilan bevosita ulanib ketgan ma‘naviy qurol ekanini unutib qo‘yganimiz esa eng katta og‘rig‘imizdir.

Aslida xalq og‘zaki ijodi – bu shunchaki qadimiy cho‘pchaliklar yoki dostonlar yig‘indisi emas, balki millatning til boyligi, estetik didi va ijtimoiy immuniteti jamlangan eng mukammal tarbiya tizimidir. Bugun maktab yoshidagi bolalar nutqida kuzatilayotgan qashshoqlik, fikrni ravon va badiiy ifodalay olmaslik muammosi aynan milliy folklor bulog‘idan uzilib qolganimiz oqibatidir. Smartfondan oqib kelayotgan begona madaniyat va agressiv virtual o‘yinlar ta‘sirida tarbiyalanayotgan bolaning ruhiy olami soflik, mehr-oqibatni yo‘qotib boradi. Xalq ertaklaridagi yaxshilik va yomonlik kurashi, maqollardagi hayotiy falsafa va dostonlardagi Vatan taqdiri uchun mas‘uliyatni his qilish tuyg‘ulari esa bola ruhiyatini tarbiyalovchi va ularda empatiya (boshqalarga hamdardlik) hissinu uyg‘otuvchi tayyor psixologik dasturlardir. Ushbu dasturlarni bolalar qalbiga singdirish uchun, birinchi navbatda, oilada ertak aytish va doston o‘qish an‘anasini qayta tiklashimiz, so‘ng maktabda o‘quvchilar bilan jonli muloqot ko‘priklarini qurishimiz zarur.

Biz – bugungi kun pedagoglari zamon bilan hamnafas bo‘lishga majburmiz, aks holda o‘quvchini dars jarayonida ushlab qololmaymiz. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini bugungi kun tiliga “tarjima” qilib berish asosiy maqsadimizga aylanishi shart. Masalan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini o‘tayotgan-

mizni shunchaki yodlatish emas, ularning zamiridagi falsafiy mohiyatni ochib berish kerak. Axborot xurujlari avj olgan, yolg‘on xabarlar oqimi inson ongini zaharlayotgan bir davrda “Yetti o‘lchab, bir kes” yoki “Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” kabi xalq hikmatlarini bugungi virtual dunyoning axborot gigiyenasi va faktlarni tekshirish qoidalarini ekanini anglab yetgan bola xalq donishmandligi naqadar chuqur va zamonaviy ekanini his qiladi va unga hurmat bilan yondashadi.

Ta‘lim tizimining ushbu sohadagi islohoti faqat darsxona bilan cheklanib qolmasligi lozim. Zamonaviy bola axborotni asosan vizual shaklda qabul qilishini inobatga olib, davlat ta‘lim standartlari doirasida milliy ertak va dostonlarimiz asosida yuqori sifatli animatsion filmlar, audiokitoblari va interaktiv ilovalar yaratilishi davr talabidir. Sinfda faqat ma‘ruza o‘qish davri o‘tdi, bugun biz “ertak-terapiya” va rolli o‘yinlar usullaridan foydalanib, bolalarni qahramonlar o‘rniga qo‘yib ko‘rishimiz, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishimiz kerak. Xalq og‘zaki ijodi – millatimizning ma‘naviy va madaniy DNKsidir. Agar biz bugun ushbu genetik kodni yosh avlod qalbiga to‘g‘ri yetkazib bera olmasak, ertaga o‘zlikdan uzilgan, ma‘naviy bo‘shliqqa tushib qolgan va global to‘fonlar oldida himoyasiz manqurtlar avlodiga ro‘baro‘ kelishimiz hech gap emas. Bizning bosh burchimiz – dars konspektidan tashqariga chiqib, xalq og‘zaki ijodining sof buloqlari orqali o‘quvchilarimiz qalbiga Vatanga bo‘lgan muhabbat, milliy g‘urur va insoniy fazilatlarini uyg‘otishdir. Zero, o‘z ildizidan suv ichmagan daraxtning shoxlari uzoqqa bormaydi, folklor esa bizga ajdodlardan qolgan eng bebaho, hech qachon eskirmaydigan mayoqdir.

Pedagogdan pedagogga

TARIX TA'LIMINING ZAMONAVIY QIYOFASI

(7-sinf, O'zbekiston tarixi)

Darsliklardagi har bir mavzu o'qituvchidan o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ana shunday darslarimizdan birini tashkil etish jarayonini e'tiboringizga havola qilamiz. Dars jarayonida qo'llanilgan quyidagi metodlardan boshqa mavzularda ham foydalanish mumkin.

Mavzu: "Qoraxoniylar davlati". Darsni o'quvchilarda qiziqish uyg'otuvchi savollar bilan boshlash maqsadga muvofiq. Masalan, "Bilasizmi, hozirgi O'zbekiston hududida o'rta asrlarda kimlar yashagan?" yoki "Bizning ajdodlarimiz qachon islom dinini qabul qilgan?" kabi savollar o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi. So'ngra o'qituvchi Qoraxoniylar davlatining paydo bo'lish tarixi, uning geografik joylashuvi va poytaxtlari haqida ma'lumot beradi. Mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi metodlar samarali yordam beradi.

"Tarixiy mozaika" metodi

Mazkur metod orqali o'quvchilar Qoraxoniylar davridagi asosiy siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarni ketma-ketlikda joylashtirishni o'rganadi. O'quvchi tarixiy voqealar o'rtasidagi sabab va oqibat aloqalarini anglaydi, voqealarni umumiy tarixiy manzara bilan bog'laydi. Ushbu metod o'quvchilarni tarixiy tafakkurga, xronologik izchillikka, dalil va asos bilan fikrlashga o'rgatadi. Shuningdek, u jamoaviy ishlash, o'z fikrini himoya qilish va tahliliy yondashuvni shakllantiradi. Murakkab tarixiy jarayonlarni soddalashtirib, har bir o'quvchiga faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu metod darsda ijodkorlik, izlanish va hamkorlik muhitini yaratadi.

Jarayonda o'qituvchi Qoraxoniylar davridagi bir qancha voqeani kartochkalarga yozadi.

- 840-yili – turkiy qabilalar birlashuvi.
- 942-yili – Sotuq Bug'roxon islomni qabul qiladi.
- 960-yili – islom dini davlat dini sifatida e'lon qilinadi.
- 992-yili – Qoraxoniylar Buxoroni egallaydi.
- 1040-yili – Saljuqiylar bilan ittifoq tuziladi.
- 1089-yili– Saljuqiylar Buxoroni egallaydi.
- 1100-yillar – davlat ikki qismga bo'linadi.
- 1210-yil – Xorazmshohlar tomonidan tugatiladi.

Guruhlar bu kartochkalarni xronologik tartibda joylashtiradi. 1–8-voqealarni ketma-ketlikda joylashtirib, har bir voqeani 2–3 gap bilan sharhlaydi. Natijani taqdimot shaklida himoya qiladi. Har bir guruh o'z mozaikasini himoya qiladi, o'qituvchi eng izchil va mantiqiy tahlilni baholaydi.

"Tarixiy rolli o'yin" metodi

Bu metodda o'quvchilar tarixiy shaxslar rolini ijro etadi va ularning qarorlari, his-tuyg'ulari, hayotiy tanlovlarini o'zlari his qiladi. Shu orqali ular voqeani na-faqat o'qib tushunadi, balki jarayonlarda "yashaydi". O'quvchilarda tarixiy empatiya, tasavvur va muloqot madaniyati shakllanib, faollik, tarixiy tafakkur va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati yanada rivojlanadi. Dars jarayonida shaxslarning tarixiy qarashlari namoyish etiladi. O'yin davomida o'quvchi o'z pozitsiyasini himoya qilishni o'rganadi.

Har bir o'quvchiga tarixiy rol beriladi (Sotuq Bug'roxon, Yusuf Xos Hojib, Hasan Bug'roxon. Sotuq

Bug'roxon – diniy islohotchi; Yusuf Xos Hojib – ma'rifatparvar; Hasan Bug'roxon – davlat arbobi).

Metod yakunida umumiy xulosa chiqariladi.

"Tarixiy xarita bilan ishlash" metodi

Bu metod tarixni fazoviy va vizual idrok etishga asoslanadi. O'quvchi tarixiy voqealarni faqat vaqt bilan emas, balki joy bilan ham bog'laydi. Xarita orqali davlat hududi, markazlari, savdo yo'llari va qo'shni davlatlar o'rni aniqlanadi. Shu orqali o'quvchi tarixiy voqealarni geografik jihatdan tahlil qilishni o'rganadi. Shu bilan birga, vizual materiallar bilan ishlash madaniyati rivojlanadi.

Topshiriq. Qoraxoniylar davrining xaritasini tahlil qiling. Asosiy siyosiy markazlarni belgilang. Qoraxoniylar hududidan qaysi savdo yo'llari o'tganini aniqlang. Xaritaga asoslanib, 5 ta savol tuzing.

"Tahliliy jadval" metodi

Mazkur metod orqali o'quvchi voqealar, shaxslar va tarixiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlaydi. Jadval shakli tarixiy ma'lumotlarni aniq, mantiqiy va izchil ko'rsatishga yordam beradi. O'quvchilar dalillarni taqqoslab, sabab va oqibatni tahlil qilishni o'rganadi. Shuningdek, vizual o'rganish imkoniyati kengayadi.

Topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

Asosiy yo'nalish	Qoraxoniylar davrida holat	Tahliliy izoh
Siyosiy boshqaruv		Hokimiyat nasldan naslga o'tgan, markaziy boshqaruv kuchli bo'lgan.
Din va mafkura	Islom davlat dini bo'ldi.	
	Yusuf Xos Hojib asarlari yaratildi.	
Iqtisodiyot		

"O'quvchilar zanjiri" metodi

Bu metod o'quvchilarni tarixiy voqealar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlashga o'rgatadi. "Zanjir" deb atalishining sababi, har bir voqea keyingisini izohlaydi va bir-biriga ulanadi. O'quvchi tarixiy ketma-ketlikni emas, balki jarayonning sabab va oqibat mexanizmini tahlil qiladi. O'quvchilar voqealarni o'zaro bog'lash orqali tarixiy umimlashtirishlar hosil qilishadi.

Topshiriq. O'qituvchi "Qoraxoniylar davrida islomning tarqalishi" jarayonini 6 bosqichda beradi. O'quvchilar har bir bosqichni sabab-oqibat zanjirida bog'laydi:

Sotuq Bug'roxon islomni qabul qildi.
Davlat mafkurasi o'zgardi.
Madrasa va ilm markazlari ochildi.
Savdo va madaniyat rivojlandi.
Islom axloqi siyosiy hayotga singdi.
Qoraxoniylar davlati mustahkamlandi.



Har bir guruh o'z zanjirini taqdim etadi va "agar shu voqea bo'lmaganida..." yo'sinida davom ettiradi.

"Bilimingizni taqqoslang" metodi

"Tarixiy taqqoslash" metodi o'quvchilarga ikki yoki undan ortiq tarixiy holatni solishtirish orqali umumiylik va farqlarni aniqlashni o'rgatadi. Qoraxoniylar davlati tarixini boshqa davr yoki davlat bilan solishtirish orqali o'quvchida mantiqiy tafakkur va tahliliy yondashuv rivojlantiriladi. Bu metod o'quvchilarga tarixiy jarayonlarni atroflicha tahlil qilib ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar sabablarga chuqurroq kirib boradi, tarixiy xulosalar chiqaradi.

Topshiriq.

Mezoni	Qoraxoniylar davlati	Somoniylar davlati
Diniy siyosat		
Iqtisodiyot		
Madaniyat		

Har bir guruh jadval asosida "Qoraxoniylar madaniyatining o'ziga xosligi nimada?" degan savolga tahliliy javob beradi.

"Qiziqarli intervyu" metodi

Bu usulda o'quvchi jurnalist, uning sinfdoshi yoki o'qituvchi esa tarixiy shaxs rovida bo'ladi. Suhbat davomida tarixiy shaxsning qarashlari, faoliyati va qarorlari tahlil qilinadi. Bu metod o'quvchining tanqidiy fikrlash, savol berish va mantiqiy javob topish ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchilar tarixiy dalillarga tayangan holda suhbat olib boradi. Dars yakunida o'quvchi o'z intervyusidan tahliliy xulosa chiqaradi.

Topshiriq. Sotuq Bug'roxon bilan intervyu tayyorlang:

Davlatingizda diniy bag'rikenglik qanday edi?
Qaysi qadriyatlarni avlodlarga meros qoldirishni xohlaysiz?..

O'quvchilar intervyuni sahna ko'rinishi tarzida taqdim etadi. O'qituvchi esa tarixiy aniqlik va tahlil sifatini baholaydi.

Mahbuba KENJAYEVA,
Vobkent tumanidagi
28-maktabning
tarix fani o'qituvchisi



Qutlov

Taqdirimizdagi Aziz ustoz



Taniqli davlat va jamoat arbobi Aziz To'rayevning 1956-yili Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi maktablardan birida o'qituvchilikdan boshlangan mehnat faoliyati keyinchalik yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji yo'lidagi ulkan tashkilotchilik ishlariga ulanib ketgan. Ustozning hayot yo'li madaniyat va san'at sohasi bilan uzviy bog'liq. U Kinematografiya davlat qo'mitasi raisi sifatida milliy kino san'atini rivojlantirish, yangi ijodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va o'zbek kinematografiyasining nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shdi. Milliy kino orqali xalq tarixi, milliy qadriyatlar va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishga qaratilgan ishlarida uning rahbarlik mahorati yaqqol namoyon bo'ldi.



Shuningdek, u kishi uzoq yillar Abdulla Qodiriy nomi-dagi Toshkent davlat madaniyat institutiga rahbarlik qildi. Rektor sifatida yuzlab iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, madaniyat va san'at sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga hissa qo'shdi. Uning rahbarligi davrida institut nafaqat ta'lim maskani, balki ma'naviy-ma'rifiy markaz sifatida ham shakllandi. Ko'plab madaniyat arboblari, olimlar va ijodkorlar o'zining ilk qadamini aynan shu dargohda boshlagan.

Aziz To'rayevning ko'p yillik samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib qadrlangan. "Do'stlik" ordeni hamda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. 2023-yilda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, yosh avlod tarbiyasiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlandi.

Taqdirni belgilagan donishmandlik

Bolalik yillarim – maktab darslaridan tashqari tumanimizdagi adabiy kechalar, konsert dasturlari va faol jamoatchilik ishlari bilan o'tdi. She'r o'qish, davrani boshqarish, kuylash... Bu intilishlar ota-onamning nazari-da porloq iste'dod bo'lib ko'ringani, tabiiy. Shu bois otam meni katta umid bilan Toshkentga – Madaniyat institutiga yetaklab keldi.

Rektor qabulidagi o'sha suhbat hali-hamon yodimda. Otamning hayajon bilan meni maqtashi, rektorning diqqat bilan tinglashi, va nihoyat, aytilgan o'sha "hukm". U kishi san'atkor bo'lish uchun faqat ishtiyoq emas, ilohiy

iste'dod, o'ziga xos ovoz va eshitish qobiliyati kerakligini aytib, mening salohiyatimni boshqa o'zanda ko'ra oldi. Rektorning o'sha kungi gapi – "Qizingizda odamlarga yaxshilik qilishga bo'lgan kuchli istak bor. Institutimizda yangi ochilgan "Ijtimoiy ish" yo'nalishi aynan siz kabi fidoyilar uchun", degan so'zlari hayotimning burilish nuqtasi bo'ldi.

Ustoz o'sha payti donolik bilan yo'l tutganini bugun, yillar o'tib, yanada chuqurroq anglayman. U olis tuman-dan umid bilan kelgan ota-bolaning orzularini so'ndirma-di, balki unga to'g'ri yo'nalish berdi. Inson o'z o'rmini topgandagina, u haqiqiy mazmunli hayot kechira olishini Aziz ustoz yaxshi bilardi.

Aziz To'rayev madaniyat faqatgina sahna va kuy-qo'shiqlardan iborat emas, balki u – tarix, sotsiologi-ya, psixologiya va etnografiya kabi chuqur ilmlarning sintezi ekanini uqtirardi. U yangidan-yangi kasbiy yo'nalishlarni ochish orqali minglab yoshlarning bandligini ta'minlash va millat ma'naviyatini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shdi.

Talabalarining suyanchig'i

O'shanda rektor xonasining eshigi viloyatdan kelgan, poytaxtning katta dunyosiga endigina qadam qo'ygan yoshlar uchun hamisha ochiq edi. Aziz To'rayev barcha talabani o'z farzandidek ko'rar, ularning ko'nglidagi har bir gapni otalarcha diqqat bilan tinglardi.

Bir kuni kutubxonadan olgan nodir sotsiologiya qo'llanmalarini avtobusda unutib qoldirdim. Kitoblar to-

pilmagach, kutubxona mudirasining qat'iy talabi qarshi-sida chorasiz qoldim. Bolalarcha soddalik bilan "rektor himoya qiladi", degan umidda qabuliga kirdim. Bugun o'shandagi dadilligimdan uyalib tabassum qilaman, lekin o'sha soddalik menga ulug' saboq eshigini ochgan edi.

Insoniylik darsi

Rektor meni eshitdi va kutubxona mudirasini chaqir-di. Mudira kirdi-yu, meni "bebosh" deya ayblay boshladi. Ammo Aziz To'rayevning so'zlari xonadagi ob-havoni o'zgartirib yubordi:

– Siz o'z vazifangizni bajaryapsiz, yaxshi, lekin bu qizimizni qiynamaylik. Poytaxtga kelganiga ko'p bo'lma-gan, shaharning shovqinli manzarasiga chalg'ib, ozgina xayolparastlik qilib qo'yibdi-da, – deb jilmaydi u kishi.

So'ng o'z hamyonidan mo'maygina pul chiqarib, yo'qolgan har bir kitobning o'rniga 2 tadan yangisini olib kelishni topshirdi. Xijolatdan yuzim lovullab ketdi. Ustoz meni kuzatayotib, nasihat qildi:

– Oppoq qizim, omonatni asrash – insonning eng katta burchi. Endi qir-adirda o'ynab yurgan qizaloq emassan, katta shaharda har qadamingni hushyor bos!

Bir inson – minglab taqdirilar

Aziz To'rayev qaysi idorada ishlamasin, o'zidan faqat yaxshilik, ilm va mehr qoldirdi. Men kabi o'z hayotiy taj-ribasidan hikoya qilgan talabalar qancha, Aziz ustozning ilm-urfonidan bahramand bo'lib, hozirgacha o'z sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan, u kishidan hamisha minnatdor bo'lgan shogirdlar minglab topiladi.

Bugungi kunda ham ustoz jamoatchilik ishlaridan chet-da emas. U Respublika "Mehruva muruvvat" jamoat fondi raisi sifatida ehtiyojmand insonlarni qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibat va insonparvarlik tamoyillarini keng targ'ib qilish yo'lida samarali faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, u "Nuroni" jamg'armasi Vasiylik kengashining a'zosi sifa-tida mamlakatimiz faxriylarining ijtimoiy faolligini oshirish va ularning hayotiy tajribasini yoshlar tarbiyasiga yo'nal-tirish ishida faol ishtirok etmoqda.

Tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Prezident farmoni asosida "Mehnat shuhrati" ordeniga sazovor bo'lgan Aziz To'rayevning hayot yo'li – bu xalqqa xizmat qilish, Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish va insonlarga mehr ulashishning yorqin namunasidir. Uning sermazmun umri, boy tajribasi va ezgu ishlari kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. To'qson yoshida ham yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi va yoshlar tarbiyasi haqida qayg'urayotgan bu insonning hayoti va faoliyati har qancha e'tirofga munosib.

Dilnavoz SAIDOVA,

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi

Sirdaryo viloyat kengashi raisining

Yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi

Elda aziz

Ziyolilar sulolasining izdoshi



Qamashi tumanidagi 62-maktabni o'n sakkiz yildan buyon boshqarib kelayotgan Olim Jalilovning faoliyati bilan yaqindan tanishishni niyat qilib u yerga bordim.



Odatda ta'til payti maktabni ta'mir-lash ishlariga mas'ul bo'lganlardan tash-qari boshqa kishilarni maktab hovlisida uchratish amrimahol. O'quvchilarning gavjumligini ko'rib, ajablanganimni sezgan maktab direktori:

– Bu ham "Dolzab 90 kun"ning me-vasi-da... Ta'til bo'lishiga qaramasdan maktabimizdan o'quvchilarning qadami uzilgani yo'q. Kimdir sport, kimdir san'at, yana kimdir fan to'garaklariga qatnab tu-ribdi, – dedi.

Suhbatdoshim gapining isbotini amal-da ko'rsatishni niyat qildi chog'i, meni to'garak xonalari sari boshladi. O'quvchi-lar qo'llarini ko'ksiga qo'ygan holda jo'r bo'lib, xorijiy tilda salom berishdi. Jara-yonni bir muddat kuzatib amin bo'lganim, bolalarning ingliz tilini o'rganishga ixlosi baland, mashg'ulot jarayoni jonli tarzda davom etardi. Shu tariqa sport va boshqa fan to'garaklarida ham shunday ijobiy ho-latga guvoh bo'ldim.

Ona tili va adabiyot fani muallimi So-bir Qodirov maktabda olib borilayotgan ijobiy ishlar zamirida maktab direktori-niing xizmatlarini e'tirof etdi:

– Olimjon bolaligidan serg'ayrat, ilimli, odobli, barcha fanlarga qiziqadi-gan bo'lib ulg'aydi. Ayniqsa, tarix faniga o'zgacha mehr qo'ydi. Dastlab Toshkent

yuridik texnikumini, so'ng Nizomiy nomidagi peda-gogika institutining tarix fakultetini tamomlab, mak-tabimizga o'qituvchi bo'lib ishga keldi. 2008-yildan beri direktorlik vazifasi-ni bajarib kelmoqda. Ja-moada sog'lom muhit-ni shakllantirib, yoshlarning ilm olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beri-shi natijasida ta'lim va tarbiya sifati maqta-sa arzigulik darajaga chiqdi. Olimjondagi fidoyilik, jonkuyarlik, samimiylik sifatlari bilan birga, rahbarlarga xos qattiqqo'llik va talabchanlik fazilatlarini alohida qadr-laymiz.

Kun nihoyatda issiq bo'lganligi sabab soyaning quyuqroq joyini topib direktor bilan suhbatga kirishdim:

– O'ttiz bir yoshingizda sizni kattagina maktabga direktorlikka tayinlashibdi. Ora-dan o'n sakkiz yil o'tibdi, jamoadagilar orasida faoliyatingizga nisbatan hech qan-day norozilik kayfiyati ko'rinmadi. Buning boisi nimada?

– Tug'ma pedagogman, tug'ma rah-barman desam, hayron qolmang. Bobom Jalil Haydarov – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi bo'lgan. Umrining oxirigacha, ya'ni 1980-yilgacha mak-

tabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlagan, muallimlik kasbini sharaflab, ardoqlab kelgan.

Katta bobom – Haydar bobo Niyo'zov haqida to'liq ma'lumot qolmagan, ammo qishloq keksalarining o'za-ro gurunglarida u kishi o'z davrining peshqadam ziy-olisi, ma'rifatparvar insoni sifatida eslanadi. Aytish-laricha, bobomiz savodli, imon-e'tiqodli kishi bo'lib, Haj ziyoratiga piyoda yo'lga

chiqib, qaytib kelmagan ekan. Otam Xudoyor Jalilov Qoratepa qish-log'idagi maktabni tamomlab, Qarshi davlat pedagogika institutining biologiya fakultetida tahsil olgan. Pedagogik faoli-yati tumandagi 14-maktabda biologiya fani o'qituvchiligidan boshlanib, bu yerda bir muddat ishlagach, yangi ishga tushiril-gan 62-maktabda biologiya fanidan o'quv-chilarga saboq bera boshlagan.

U kishining ilm zaxirasi, tashkilotchi-lik salohiyati fan o'qituvchisi doirasidan ancha yuqori bo'lib, o'zining dars o'tish salohiyati, mavzularni o'quvchi ongiga singdirish qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turishini ko'pchilik safdoshlari ta'kidlashgan. Otamdagi bu jihatlarning kelgusidagi rahbarlik faoliyati uchun asosiy mezon vazifasini o'tagan, desam adashmayman. Avvaliga o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida, 1989-yildan maktab direktori bo'lib uzoq

yillar ishlagan. Ayniqsa, 1989–1997-yil-lari otam rahbarligidagi maktab barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tumanda o'z o'rniga ega maktablar qatorida tilga olinadigan bo'ldi.

1998-yili pensiyaga chiqqan otam-ni mahalladoshlari oyoq uzatib keksalik gashtini surishga qo'yishmadi. "Qishloq ahlining boshini sizdek tajribali va ko'pni ko'rgan kishi biriktirmasa, kim biriktiradi" deb, qishloq oqsoqoli etib tayinlashdi. O'n to'rt yillik oqsoqollik faoliyati davomida to'y-ma'rakalar, turli yig'inlarda davom etib kelayotgan oshiqcha dabdaba, isrof-garchiliklar, kerakli-keraksiz chiqimlarga sabab bo'layotgan rasm-rusumlarga qar-shi imkon qadar tushuntirish va tashviqot ishlarini olib bordi. Oilaviy ajrimlarni ka-maytirish, erta nikohga barham berish kabi dolzarb ijtimoiy muammolar va ularni bar-taraf etish haqida qayg'urdi.

Olimjon Jalilovning "Men tug'ma pedagog, tug'ma rahbarman" degan da'vo-siga onasi Oysifat Toshmurodovanning ham maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi, bog'cha mudirasi, jamoa xo'jaligi xotin-qizlar qo'mitasi raisi lavozimlarida ish-lagani yana bir sababdir. Oysifat momo bugungi kunda farzandlari va nevara-che-varalari ardorg'ida, dorilomon kunlar shukronasi ila keksalik gashtini surmoqda.

Xudoyor Jalilov Oysifat aya bilan tot-li va barakali yashab, besh o'g'il va bir qizni o'qitdi, uyli-joyli qilib elga qo'shdi. "Ot izini toy bosar" deganlaridek, bu ziyo-li sulolaning o'n nafarga yaqin izdoshlari pedagoglik kasbini e'zozlab kelishmoqda.

Olimjon Jalilovdagi kasbga sadoqat, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul-lik va javobgarlik hissi unga begona emasligi, otameros mas'uliyat va burch ekanligiga amin bo'ldik.

Sharifjon AHMAD

Qamashi tumani

Xotira

Izlanishlari umri mazmuni bo'lgan olima



Ilmni hayot tarziga aylantirgan, muayyan natijaga erishish uchun borini beradigan insonlar bor. Texnika fanlari doktori, akademik, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Anna Glushenkova ana shunday hayotini fanga bag'ishlagan olimlardan biri edi.

Anna Glushenkova 1926-yili Volgo-gradning Rudnya tumanida tug'ilib, 1936-yili ota-onasi bilan birga O'zbekistonga, Termiz shahriga ko'chib kelgan. Bu yerda otasi harbiy xizmatdan keyin ishda qolgan edi. 1943-yili Termiz shahridagi o'rta maktabni tugatib, O'rta Osiyo industrial institutiga (Toshkent politexnika instituti) o'qishga kirgan. Institutni 1948-yili tamomlagach, aspiranturada izlanishlarini davom ettirish uchun qolgan.

1953-yili u professor A.Markman rahbarligida "Влияние некоторых факторов на маслянистость хлопкового жмыха" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1972-yili esa "Влияние природы катализатора и режимов гидрирования хлопкового масла на состав гидрогенизата" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Anna Glushenkova dastlab Toshkent politexnika instituti "Yog'lar texnologiyasi" kafedrasida dotsent, keyinchalik kafedra mudiri lavozimida ishlab, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shdi. Bu kadrlarning salohiyati O'zbekiston sarhadlaridan tashqarida ham keng e'tirof etilgan. Uning sobiq talabalari orasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining uch nafar akademigi – Z.Salimov, N.Yusufbekov va M.Obidova bor.

1961-yildan boshlab olima O'simlik moddalari kimyosi institutida dastlab katta ilmiy xodim, so'ng Lipidlar kimyosi laboratoriyasi mudiri, 1984–1989-yillari esa institut direktori lavozimlarida faoliyat olib bordi. 1982-yilda professor unvonini olgan ustozimiz 1984-yili O'zR FA muxbir a'zosi etib saylandi. Shuningdek, 1989–1991-yillari O'zR FA Rayosati a'zosi, 2000-yildan esa O'zR FA akademigi bo'ldi.

A.Glushenkova tabiiy birikmalar kimyosi va texnologiyasi sohasidagi taniqli olimdir. U o'z hayoti va ilmiy faoliyatini

butunlay lipidlar, jumladan, g'o'za lipidlari kimyosi va texnologiyasini rivojlantirishga bag'ishladi.

U Namangandagi zavodda olib borgan nomzodlik dissertatsiyasi tajriba ma'lumotlariga ishlov berish uchun ilk bor matematik statistika usulini qo'lladi. Bu unga paxta mag'zini mexanik presslarda presslash jarayonining asosiy ko'rsatkichlarini mag'izning turli namlik, harorat, sheluxa (chilpo'st) miqdori va maydalanish darajasida aniqlash imkonini berdi. Bunday yondashuv tufayli u o'sha davr uchun yangi apparatlarda paxta chigitini qayta ishlashning optimal tartibini (rejimini) ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa kunjarning moyililigini kamaytirish hisobiga moy chiqishini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Nomzodlik dissertatsiyasining natijalaridan Respublika yog' zavodlarida mag'izni oldindan presslab, so'ngra moyni ekstraksiyalash usuli bilan olish tizimiga o'tilgunga qadar keng foydalanildi.

Anna Glushenkovaning 1952-yilda chop etilgan dastlabki ishlarida paxta moyining sifatini oshirish maqsadida uni oqlash uchun mahalliy O'rta Osiyo gillari-dan (loylaridan) foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. U tomonidan tarkibida gossipol miqdori past bo'lgan moy va shrot olish masalasiga, shuningdek, paxta moyini gidrogenlash jarayonini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tarkibida gossipol bo'lmagan moy va shrot olish maqsadida A.Glushenkova o'z xodimlari bilan birgalikda paxta yanchig'idan (myatkasidan) dastlab geksan yordamida moyni, so'ngra suvli aseton bilan gossipolni ajratib olishni taklif qildi. Bu nafaqat gossipolsiz moy va shrot olish, balki qo'shimcha mustaqil mahsulot sifatida bir qator dori vositalarini yaratish uchun ma'lum va mashhur xomashyo hisoblangan gossipolni ham ajratib olish imkonini ber-

di. U amaliy ishlar bilan bir qatorda fundamental tadqiqotlarni ham e'tibordan chetda qoldirmadi.

A.Glushenkovaning turkum ishlari yovvoyi holda o'suvchi dorivor va madaniylashtirilgan o'simliklar florasida lipidlarining tarkibi, nozik tuzilishi va funksiyasini o'rganishga bag'ishlangan. Ustozimiz hamkasblari bilan birgalikda yovvoyi o'simliklar lipidlari bo'yicha olib borgan fundamental tadqiqotlar o'simliklarning zaxira lipidlaridagi yog' kislotalari tarkibi va triasilglitserinlar tuzilishining xemotaksonomik ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Olima o'z ishlarida lipidlar tahlili uchun zamonaviy fizikaviy va kimyoviy usullarning murakkab majmuyini keng qo'llagan, buning natijasida triasilglitserol-lar tarkibidagi yog' kislotalarining tuzilishi va tarkibi, g'o'za chigitida asilglitserollar biosintez yo'llari hamda yog'larning qayta eterifikatsiyalanish (pereeterifikatsiya) jarayoni mexanizmi haqida eng to'liq tasavvur olingan. Kenaf fosfolipidlarini o'rganish davomida A.Glushenkova, X.Muhamedova va boshqalar dorivor o'simliklar uchun yangi bo'lgan, asosan dengiz hayvonlariga xos fosfolipidlar sinfi – fosfonolipidlarni ilk bor aniqladilar.

A.Glushenkovaning qator ishlari farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi chiqindilari lipidlarini o'rganishga bag'ishlangan. Mualliflar va xodimlar bilan birgalikda kartoshka palagi lipidlari asosida jarohatlarni davolovchi "Lipozol" vositasi ishlab chiqildi. Farmatsevtika ishlab chiqarish chiqindilari lipidlarini tadqiq etish orqali ulardan maishiy kimyo va kosmetika mahsulotlarida foydalanish istiqbollari ko'rsatib berildi, bu esa keyinchalik bir qator ishlanmalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan o'z tasdig'ini topdi. Paxta moyini rafinatsiyalash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindi – soapstokdan A.Glushenkova o'z xodimlari bilan birgalikda yog' kislotalarini ajratib oldi va ularni etilenglikol bilan eterifikatsiya qildi. Olingan mahsulot Toshkent go'sht kombinatida terilarga ishlov berish uchun ishlatildi.

Olimaning lipidlar kimyosi va texnologiyasi sohasidagi ishlarining o'ziga xosligi, yangiligi va xalq xo'jaligidagi



muhim ahamiyati 38 ta mualliflik guvohnomasi va O'zbekiston Respublikasi patentlari bilan tasdiqlangan. Anna Glushenkova mutaxassislarni tayyorlash masalasiga ham katta ahamiyat qaratgan. Ustoz bir nafar fan doktori va 12 nafar fan nomzodi yetishtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida ishlash bilan bir qatorda, Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat institutining "Yog'lar texnologiyasi" kafedrasida maxsus kurslardan, shuningdek, ilk bor joriy etilgan talabalarining ilmiy ishlari asoslari fanidan ma'ruza o'qigan. Bundan tashqari, u "Olima" ilmiy uyushmasini tashkil etish tashabbuskorlaridan biri bo'lgan.

A.Glushenkova asosiy yo'nalishlarni to'g'ri tanlay bilish va xalq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan tadqiqotlarni amalga oshirish qobiliyati, yuklatilgan vazifaga nisbatan yuqori mas'uliyat hissi, o'z shogirdlari bilan tajriba va bilimni baham ko'rishga doimiy tayyorligi, yuksak ziyoli, mehribonligi va samimiyligi bilan atrofdegilar hurmatini qozongan edi. A.Glushenkovaning faol ilmiy va jamoatchilik faoliyati hukumat tomonidan munosib taqdirlangan. Unga "Xalqlar do'stligi" va "Mehnat shuhrati" ordeni, "Fidokorona mehnati uchun" medali hamda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni berilgan.

Nigora YO'LDOSHEVA,
O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti "Lipidlar va nanokomplekslar" laboratoriyasi mudiri, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Elda aziz

Ustozlik – umrboqiy safar

Inson umri yillar bilan emas, balki uning xalq va jamiyat uchun qilgan egu ishlari bilan o'lchanadi. Shunday insonlar borki, ularning mehnati bir oila yoki bir jamoa doirasida emas, balki butun avlod taqdirida o'z aksini topadi. Matluba Eshmurodova ana shunday fidoyi ustozlardan biri hisoblanadi.

Matluba Eshmurodova 1946-yil 20-avgust kuni Toshkent viloyatida tug'ilgan. Bolaligi Toshkent tumani Shamsiobod mahallasida kechdi. Yoshligidanoq bilimga chanqoq, mehnatsevarligi va matonati bilan atrofdegilar e'tiborini qozondi. Hayot sinovlari uni erta mehnat qilishga undadi. Oilasiga ko'mak berish maqsadida kol-xozda tabelchilik qilib, kechki maktabda tahsilni davom ettirdi. Kunduzi mehnat, kechqurun o'qish uning hayot tarziga aylangandi. Ammo bu qiyinchiliklar uning ilm olishga bo'lgan intilishini so'ndirmadi. Aksincha, yanada tobladi va kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamladi. 1963-yili kechki maktabni a'lo baholarga tamomlab, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining fizika fakultetiga o'qishga qabul qilindi. Talabalik yillarida ham bilimdon, faol va tashabbuskorligi bilan ustozlari va kursdoshlari hurmatiga sazovor bo'ldi. Oliy ta'limni tamomlagach, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumaniga ishga yuborildi. Turmush o'rtog'i Elmurod aka matematika, Matluba opa esa fizika fani o'qituvchisi sifatida faoli-



Yangi maktab binosini qurish tashabbusi bilan chiqqanligi uning fidoyi rahbar sifatidagi fazilatlarini yaqqol namoyon etdi. Qishloq aholisi, ota-onalar va mehnat jamoasini bir maqsad atrofida birlashtirib, hashar yo'li bilan yangi maktab qurilishiga bosh-qosh bo'ldi. Bu ishlar bugun ham hurmat bilan esga olinadi.

1976-yili oila Toshkent shahriga ko'chib kelgach, Olmazor tumanidagi 219-maktabda faoliyatini davom ettirdi. U yerda ham yuzlab o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berib, ularning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashdi. 1996-yili nafaqaga chiqqan bo'lishiga qaramasdan, jamoatchilik ishlaridan chetda qolmadi. Keles shahridagi

yatini boshladi. Yosh mutaxassislarning fidokorona mehnati qisqa vaqt ichida o'z samarasini berdi. O'quvchilarning bilim darajasi oshdi, oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlari yaxshilandi. Matluba Eshmurodovaning tashkilotchilik qobiliyati, talabchanligi va rahbarlik salohiyati inobatga olinib, Kasbi tumanidagi 31-maktab direktori lavozimiga tayinlandi.

"Ittifoq" mahalla fuqarolar yig'inida xotin-qizlar maslahat kengashi raisi bo'lib faoliyat yuritib, mahalla hayotida alohida o'rin egalladi. Uning rahbarligida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmand oilalarga yordam berish, yosh kelinlarni oilaviy hayotga tayyorlash, qizlarni ta'limga jalb etish, kitobxonlikni targ'ib qilish, milliy qadriyatlarini asrash va oila muqaddasligini mustahkamlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Nizoli oilalarni yarashtirish, farzand tarbiyasida qiynalayotgan ota-onalarga maslahat berish, mahallada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish ishlarida ham faol ishtirok etdi. Matluba opa va turmush o'rtog'i Elmurod aka 5 o'g'il va 1 qizni voyaga yetkazib, ularga yuksak ta'lim va tarbiya berdi. Farzandlarining barchasi oliy ma'lumotli bo'lib, jamiyatning turli sohalarida samarali mehnat qilib kelmoqda. Qariyb oltmish yillik mehnat faoliyati davomida Matluba Eshmurodova minglab shogirdlarga bilim berdi, yuzlab oilalarning og'irini yengil qildi, mahalla va jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etdi. Bugun ustoz hayotining ulug' va fayzli davriga qadam qo'yib, o'zining muborak 80 yoshlik yubileyini nishonlamoqda. U bosib o'tgan hayot yo'li, ta'lim sohasidagi samarali mehnati, mahalla tizimi rivojiga qo'shgan hissasi va yuksak insoniy fazilat-lari bilan barcha uchun ibrat namunasi bo'lib kelmoqda. Sakson yillik umr sarhisobiga nazar tashlar ekanmiz, Matluba opaning hayoti mehnat, sabr-toqat, ezigulik, mehr-oqibat va vatanparvarlik bilan yo'g'rilganini ko'ramiz. Uning minglab shogirdlari, farzandlari va nabiralari uchun qoldirgan ma'naviy merosi eng katta boylikdir.

Shodiyona XUSHMURODOVA

Xalqaro hayot

Iblis saltanati

VERSAL SINDROMI

Xalqimizda “Yiqilgan kurashga to’y-mas” degan dono naql bor. Darhaqiqat, yengilgan tomonda, istasa-istamasa, hami-sha alamzadalik tuyg’usi saqlanib qoladi. Buning ustiga, kurashayotgan tomonlar o’ziga keragidan ko’ra yuqori baho bergan holatlarda ushbu sindrom nihoyatda og’ir kechadi. Aytaylik, Birinchi jahon urushida Germaniya mag’lub bo’lib, bir qism bahsli hududlarini boy berdi. Buning ustiga mamlakat g’olib davlatlarga yetkazgan zarari uchun katta miqdorda badal to’lashga ham majbur etildi. Bularning bari nemis jamiyatida juda katta og’riq bilan qabul qilindi. Aslida, gitlerchi fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishidayam ana shu omil hal qiluvchi sabab bo’lgani tarixdan yaxshi ma’lum. XX asr oxirida mag’lublarga xos bo’lgan alamzadalik kayfiyati Rossiyada ham kuzatildi. G’arb mamlakatlari bilan qirq yil davom etgan “sovuq urush”da yengilgan sobiq SSSR vorisi – Rossiya Federatsiyasi keyingi davrda dunyoda shakllangan xalqaro tartiblardan norozi ekanligini goh ochiq, goh pinhona izhor qilib keldi va bu Vladimir Putinning 2007-yili Myunxen shahrida chaqirilgan xalqaro anjumandagi chiqishida rasman e’lon qilindi. Unda Putin Rossiya jahondagi siyosiy markazlardan biri ekanligi va dunyo geosiyosatida uning ham munosib o’rni bo’lishi lozimligini aytib o’tdi. Uning gapining tagmazmuni shu bo’ldiki, g’arb mamlakatlari tarixan Rossiya ta’sir doirasida bo’lgan hududlar bilan tig’iz aloqalardan batamom tiyilishi va buni Moskva ixtiyoriga qo’yib berishi kerak emish. Aks holda, o’rtada hal qilib bo’lmas ziddiyatlar paydo bo’lishi mumkin ekan. G’arb dastlab bu gaplarga jiddiy e’ribor bermadi va Moskva bilan avvalgidek yaxshi munosabatini davom ettiraverdi. Ammo ko’p o’tmay birinchi qo’ng’iroq yangradi. 2008-yil 8-avgust kuni rus armiyasi mustaqil Gurjistonga bostirib kirdi va respublika tarkibidagi Abxaziya hamda Janubiy Osetiyani o’z panohiga oldi. Bundan maqsad: gurji birodarlarimizning Yevropa sari qo’yayotgan qadamlarini qaytarib qo’yish edi. Dunyo hamjamiyati, garchand, bu voqeaga nisbatan chuqur tashvish bildirgan bo’lsa-da, biroq Kremlning tajovuzkorona harakatlariga qarshi jiddiy chora ko’rmadi. G’arb dunyosining lideri AQSH bu borada g’alati pozitsiyani tanladi. Ushbu masalada Moskvani tanqid qilish o’rmiga, aksincha Amerika va Rossiya orasidagi munosabatlarni yanada yaxshilash payida bo’ldi. To’g’ri, Barak Obama hali prezidentlikka nomzodlik davrida urush Gurjiston suverenitetiga qarshi qaratilganini aytib, Rossiyadan tezlik bilan qurolli mojaroga chek qo’yib, qo’shinlarini olib chiqib ketishni talab qilgandi. Biroq prezidentlikka saylanib olgach, “keskinlikni qayta yumshatish” siyosatini yurg’izib, Rossiya bilan aloqalarini yaxshilashga kirishdi. Bizning fikri ojizimizga ko’ra, agar o’sha paytda G’arb dunyosi Moskvaning bosqinchilik harakatlariga nisbatan xuddi hozirgidek “do’xaiy cheklovlar”ni qo’llaganida edi, bugun Gurjistonda ham, Ukrainada ham hududiy muammolar paydo bo’lmasdi. Shu ma’noda, Donald Trampning “Agar men prezident bo’lganimda Rossiya Ukrainaga bostirib kirolmasdi”, degan

gaplarida jon bor, shekilli. Rus ma’murlari G’arbdagi bunday passiv munosabatni ko’rib, yanada dadillashdilar. Vladimir Putin hokimiyat tepasiga qaytishi bilan Myunxen anjumanida olg’a surgan g’oyalarni birin-ketin amalga oshira boshladi. 2014-yilda Qirim yarimoroli gibrid urush vositasida Ukrainadan ajratib olinib Rossiya tarkibiga qo’shildi. Bu safar ham G’arb jiddiy norozilik bilan cheklandi va unchalik keskin bo’lmagan cheklovlar e’lon qilindi. Bu yutuqlardan ilhomlangan rossiyalik harbiylar Suriyaga kiritildi va Bashir Asadga muxolif bo’lgan hududlarning kulini ko’kka sovurdi. Masalan, asosan sunniy musulmonlar yashaydigan Halab shahri Rossiya uchoqlari va raketalari bilan batamom vayron qilindi. Bunda Moskva bir o’q bilan bir necha quyonna urdi. Birinchidan, Yaqin Sharqdagi o’rni mustahkamladi. Ikkinchidan, diktator Asadni muqarrar halokatdan, vaqtinchalik bo’lsa ham, saqlab qoldi. Uchinchidan, Suriyadan Yevropa tomonga kuchli muhojirlar oqimini vujudga keltirdi va bu bilan G’arb mamlakatlaridagi muxolif “o’ng” siyosiy kuchlarni quvvatlantirib, g’arb jamiyatidagi birlikni zaiflashtirdi. Buning oqibatida Yevropa mamlakatlarida ahillik va birdamlik susaydi. To’rtinchidan, Yevropa davlatlarining Sharq mamlakatlaridagi arzon energiya resurslarini olish yo’lini to’sib qo’ydi. Xulosa qilib aytganda, Suriya urushi Rossiya uchun bir necha geosiyosiy muammolarni birato’la hal qilib berdi. Aynan ana shu voqealar G’arb mamlakatlari mavqeiy pasayib borishi fonida Putinning obro’sini ham mamlakat ichida, ham tashqi dunyoda benihoya oshirib yubordi. U haqli ravishda bir necha marta dunyoning eng mashhur odami degan nomga sazovor bo’ldi. Bulardan cheksiz ilhomlangan Vladimir Vladimirovich 2022-yilning 24-fevralida o’zining navbatdagi qaltis qadamini qo’ydi...

ORIYLAR JANGI

Iblis nurdan yaralgan edi, olim edi, Ollohning sevimli ulug’ farishtalaridan biri edi. Olloh subhanahu va taolo qudrat va hikmati ila tuproqdan insonni yaratib, o’ziga o’rinbosar qilishni iroda etdi. So’ng unga o’z ruhidan jon pufladi. Odamga O’zi bu dunyoda yaratib qo’ygan har bir narsaning nomini o’rgatdi, farishtalarni unga sajda ta’zim qilishga amr etdi. Barcha maxluqot Olloh irodasiga bo’ysunib, insonga sajda qildi. Ammo faqatgina Iblis Olloh amrini bajarishdan bosh tortdi: “Odam tuproqdan yaralgan bir nodon narsa bo’lsa, men nurdan yaralib, jami farishtalarga ilm o’rgatgan olim bo’lsam, shu ipirisqiga sajda qilamanmi?!” deya Olloh amrini bajarishni rad qildi. Olloh amriga bo’ysunmagan Iblisni la’natlab huzuridan quvdi. Shu bois odamga dushman bo’lib qolgan Iblis adovatini payt poylab yuzaga chiqardi. Odam Ato bilan Momo Havo jannatda baxtli hayot kechirmoqda edilar. Ammo ularning aniq dushmanlari bo’lmish Iblis Olloh harom qilgan mevani yeb ko’rishga undadi va niyatiga erishdi. Odam ham jannatdan badarg’a bo’ldi. Ushbu buyuk fojialarning ortida katta illatlar: hasad va kibr turganini sezib olish qiyin emas. Darhaqiqat, hasad va takabburlik nafaqat alohida insonlarni, balki butun boshli jamiyatlarni ham halokat jarligiga yetaklashga kishilik tari-

xidan ko’plab misollar keltirish mumkin. Masalan, nemis fashistlari o’z millatlarini mumtoz sanab, qolgan barcha xalqlarni odam hisobida ko’rmadilar. Ular o’zlarini oliy irq deya e’lon qilib, bunga qad-qomatlari, ko’zlarining, yuzlarining rangi va hatto jag’ suyaklari o’lchamining ham boshqa millatlarga qaraganda chiroyliroq ekanligini dalil qildilar. Ushbu kibr va takabburlikning oxiri nima bilan tugaganligi ham-mamizga yaxshi ma’lum. Yoki bugungi kunlarimizdan misol keltiradigan bo’lsak, isroillik sionistlar muqaddas kitoblardan iqtibos keltirib, o’zlarining Xudo yorlaqagan xalq ekanliklarini ta’kidlashga tirishadilar. To’g’ri, bu haqda Qur’onda ham oyatlar mavjud. Ammo unda Isroil qavmining bundan g’uluvga ketib, Ollohning ko’rsatmalaridan chekinib, oltin buzoqqa sig’inishga o’tib ketganlari haqida ham aniq xabarlar bor. Haqiqatan ham, yahudiylarda oltinga sig’inish an’anasining ming-ming yillardan buyon saqlanib kelmoqda. Ularning qattol dushmanlari hisoblanmish eronlik forslarda ham shu xildagi takabburlik kayfiyati mavjud. Ular besh ming yillik tarixlari bilan faxrlanib, o’zlarini sharqdagi oriy, ya’ni, mumtoz millat, shia mazhablarini esa haqiqiy mazhab deb hisoblaydilar. Shu kayfiyat sabab bo’lsa kerak, ular Ikkinchi jahon urushi yillarida, garchand o’zlarini betaraf deb e’lon qilgan esalar-da, nemis fashistlari bilan yaqin aloqada bo’ldilar. Bu siyosat hali o’tgan asrning 30-yillaridan boshlangan bo’lib, Germaniya Eronga iqtisodiy yordam niqobi ostida o’zi uchun bo’lajak urushda kerak bo’ladigan infrastrukturalarini yarata boshlagan edi. Shu bilan birga xalq orasida oliy irq haqidagi nazariyalarni tashviq qilib, eronlik oriylarni ham o’zlariga ittifoqchi deya e’lon qilgandilar. Qizig’i shundaki, ularning ana shu bo’lmag’ur aqidalari ko’p yillar o’tib o’zimizda ham aks sado berdi: o’lkamizdagi ayrim birodarlarimiz o’zlarini “oriy” – oliy irq deya kerila boshladilar. O’sha paytlari hokimiyat tepasida bo’lgan shoh hukumati Germaniya yordamida Britaniya istibdodidan batamom qutulish payida edi. Biroq tarix o’zgacha hukm chiqardi: 1941-yilda Britaniya janubiy Eronga, SSSR esa shimoliy Eronga qo’shin kiritib, gitlerchilar va eronlik “oriylar”ning rejalarini barbod etishdi. Hatto, 1943-yilda Tehronda aksilgitlerchi koalitsiya konferensiya o’tkazib, fashistlarni batamom mag’lub qilish rejalarini belgilab oldi. Keyinchalik buyukmillatchilik sindromi Rossiyaga ko’chib o’tdi. Rus xalqi dunyodagi peshqadam millat ekanligi haqida da’vo va iddaolar paydo bo’ldi. Dastlab bu SSSRning jahondagi taraqqiyparvar mamlakatlarning yo’lboshchisi ekanligi haqida aytilgan bo’lsa, keyinroq rus millatining dunyodagi qolgan barcha millatlar uchun namuna ekanligi, pravoslav mazhabidagi aksinomaga aylantirildi. O’sha yillari o’zimiz ham har kuni “Assalom, rus xalqi!” degan madhiya sadolari ostida uyg’onganimiz bor haqiqat. To’g’ri, o’rslarning Turkiston xalqlari taraqqiyotga erishuvida katta rol o’ynagani, shubhasiz, tarixiy fakt. Ammo bunga qandaydir olamshumul voqea sifatida qarayverish ham to’g’ri emas. Shu tobda ko’p yillar burun bir odam bilan tortishib qolganim yodimga tushadi. U kishi o’zbeklarni va umuman sharq xalqlari-



Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi

ni kamsitib gapira boshladi. Shunda men unga bunaqa mazmunda gapirish xato ekanligi, masalan, yaponlar ham sharq xalqi ekanligi va hali ruslar ular darajasi-dagi taraqqiyotga erishmaganini aytib, qo’lidagi Yaponiyada yasalgan elektron soatga ishora qildim. U albatta, gap nima-da ekanligini yaxshi angladi.

XIYONAT

Buyuk faylasuf Sitseron aytganidek: “Vaqt barcha g’ayriilmiy bo’lgan narsalarni yemirib boraveradi”. Shu jumladan, irqchilik va millatchilikning ham istiqboli yo’q. Chunki dunyodagi har bir xalq irqidan, millatidan qat’i nazar, mutlaqo teng yaratilgan va bu qonun va nizomlar bilan belgilab qo’yilgan. Ammo dunyoda keyingi davrda yuz berayotgan global jarayonlar bu qonun va qoidalarni yana kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu o’rinda biz bolaligimizda qiziqib tomosha qilganimiz “Sovet ittifoqi elchisi” degan badiiy film-dagi bir epizod yodimga tushadi. Qirol elchi Kolsovan: “Ayol kishisiz, nega erkaklarning kasbini tanladingiz?” deya so’raydi. Kolsova xonim “Siz ham erkak bo’laturib kashta tikishni yoqtirasiz-ku!” deya javob beradi. Shunda qirol suhbatga siyosiy tus beradi: “Siz, xonim, oqsuyaklar avlodidansiz, nega yalangoyoq yo’qsillarga xizmat qilib yuribsiz?” deya yana mot qilmochi bo’ladi. Shunda Kolsova unga “Demak, ikkalamiz ham o’z qavmimizga xiyonat qilgan ekanmiz”, deya javob qaytaradi. Bu bilan u qirolning asli kambag’al zodagonlar avlodidan bo’lganligiga ishora qilib, sho’ro targ’ibotiga ko’ra, qirolni mot qiladi. Shu ma’noda, hozirgi hukmdorlar ham o’zlarining asl aqidalariga xiyonat qilgan kimsalardir. Masalan, Donald Tramp Yevropadan Amerikaga non axtarib borgan muhojirning avlodi. Bugun u to’nini teskari kiyib olib, Amerikadan muhojirlarni quvish bilan ovora. Bir paytlar demokratik partiya ko’magida oyoqqa turib olgan bu nusxa endi AQSH demokratik partiyasini birinchi raqamli dushman deb e’lon qildi. Yoki Vladimir Putinni olib qarasak, u sobiq kommunistik partiya a’zosi sifatida leninizmga sodiq qolib, xalqlar do’stligi va tinchliksevarlik hamda kambag’alparvarlik tamoyillariga rioya qilishi lozim edi. U esa aksincha, millatchilikni kuchaytirib urush boshladi va kambag’allarni pul bilan aldab, ayamay urush tegirmoniga tashlamoqda. Eronlik Imom Humayniy haqida ham shunga o’xshash fikrlarni aytish mumkin. Bir paytlar G’arb dunyosi unga siyosiy boshpana berib, shoh zulmidan himoya qilgandi. Zamona zaylini ko’ringki, endi uning izdoshlari G’arbni ko’rarga ko’zi yo’q. Dunyoning bugungi ajabtovur manzarasiga qarab turib, yoqa ushlab “tavba” deyishdan o’zga bir iloj yo’q.



Maxmudov O‘tkir Haydarovichning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo‘yicha “Navbatlab ekish tizimlarida yangi turdagi ekinlarni almashlab ekishning tuproq unumdorligi va g‘o‘za hosildorligiga ta’siri(Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 5-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI ko‘chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Agzamxodjayeva Nozimaxon Ulugbekovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.06 – Kardiologiya ixtisosliklari bo‘yicha “Long COVID aniqlangan bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari patogenezining immunologik va immunogenetik determinantlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Nazarov Parxod Tajaddinovichning 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik ixtisosligi bo‘yicha “Olmaning (Malus sieversii) abiotik omillarga chidamli navlarini yaratish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasisiz seleksiya yutug‘i (ixtiro patenti) asosidagi taqdimoti) himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;

veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Jumanova Moxira Zoirovnaning 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik ixtisosligi bo‘yicha “Anorning (Punica granatum L.) istiqbolli shakllarini tanlash asosida yangi navini yaratish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasisiz seleksiya yutug‘i (ixtiro patenti) asosida taqdimoti) himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;

veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Nazarova Marg‘uba Ziyadullayevnaning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo‘yicha “Teri fotoqarishida oksidlanish stressi hamda molekulyar markerlarining ahamiyati va korreksiya usullari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.TIB.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko‘chasi, 3-uy.

Tel/faks: (71) 214-50-14; e-mail: niidiv@mail.ru

Ergashev Akramjon Mavlonboy o‘g‘lining 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo‘yicha “Qizil sebgani turli muddatlarda haydash va g‘o‘zada ma‘dan o‘g‘itlar me‘yorlarining tuproq unumdorligi hamda paxta hosiliga ta’siri” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI ko‘chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Muxamedov Sherzod Nurmuxamedovichning 13.00.07 – Ta‘limda menejment ixtisosligi bo‘yicha “Umumta‘lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Ziyo ko‘chasi, 6-uy.

Tel/faks: (55) 508-06-67; e-xat: avloniy@exat.uz; e-mail: info@avloniy.uz

Mo‘minova Qunduz Xolmamat qizining 13.00.07 – Ta‘limda menejment ixtisosligi bo‘yicha “Umumta‘lim maktablarida inklyuziv ta‘limni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 2-uy.

Tel/faks: (55) 508-06-67; e-xat: avloniy@exat.uz; e-mail: info@avloniy.uz

Dexqonboyeva Zulayxo Dilshod qizining 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha “Ayollarda fitnes amaliyotga munosabatning ijtimoiy-psixologik determinantlari” mavzusidagi(psixologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.10.04.R.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-67-72; e-mail: nauka@nuuz.uz

Ismatova Mahliyo Asliddin qizining 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Soya navlarining o‘shishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish muddat va me‘yorlarining ta’siri (Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari misolida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko‘chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Raxmonqulov Bektosh Ilashevichning 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Takroriy ekin sifatida kungaboqar nav va duragaylarini yetishtirishning agrotexnologiya elementlarini ishlab chiqish(Zarafshon vohasi sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-avgust kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko‘chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Utepbegenov Muxtar Adilbayevichning 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Soyani takroriy ekin sifatida yetishtirish agrotexnologiya elementlarini ishlab chiqish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko‘chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Primqulov Avazbek Ummatqulovichning 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Soya navlariga azotli o‘g‘itlarni turli me‘yorda qo‘llashning o‘simlikning o‘shishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta’siri (Sirdaryo viloyati sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Andijon ko‘chasi, 36-uy.

Tel/faks: (74) 373-12-05, 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru

Nishonov Ilxomdjon Dilmurodovichning 10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Uilyam Gibson asarlarida kelajak tamadduni obrazi” mavzusidagi(filologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi,

G-9 “A” mavzesi, 21-uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz; e-xat: uzgumyal@exat.uz

Soy Svetlana Valerevnaning 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha “Motivatsiyaning muzokara jarayonida strategiyalarni tanlashga ta’sirining psixosemantik tahlili” mavzusidagi(falsafa fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz

Narziyev Sherali Muhamadovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo‘yicha “Qalqonsimon bez kasalliklari mavjud bemorlar immun statusi o‘zgarishlarining sabab-oqibatli bog‘liqliklari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-avgust kuni soat 12:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevnaning 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Etika) ixtisosligi bo‘yicha “Raqamlashgan jamiyatda “ishonch” tushunchasining axloqiy mohiyati (falsafiy tahlil)” mavzusidagi(falsafa fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 236-46-55; e-mail: nauka@nuu.uz

Mediasavodxonlik

FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO'G'RI VA TEZKOR AXBOROTNING O'RNI

Bugun axborot texnologiyalari shu qadar rivojlandiki, biron voqea haqidagi xabar yashin tezligida butun dunyoga yoyiladi. Buning yaxshi tomonlari ko'p. Aytaylik, milliardlab odamlarni qiziqtiradigan yirik sport musobaqalari televideniye va internet orqali real vaqt rejimida to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya qilinadi. Jamiyatning turli jabhalarida yuz bergan voqea-hodisalar jurnalistlar, bloggerlar yoki oddiy fuqarolar tomonidan tasvirga olinib, ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi va bir vaqtning o'zida millionlab kuzatuvchilar e'tiboriga havola etilishi mumkin.

Ammo muammo shundaki, bunday vaziyatda auditoriyaning o'sha axborot to'g'ri yoki noto'g'riligi, xolis yoki noxolisligini tekshirib o'tirishga vaqti ham, fursati ham, hafsalasi ham bo'lmasligi mumkin. Xabar qanday niyatda tarqatilishi, kimning manfaatiga xizmat qilishi, oddiy o'quvchi yoki tomoshabinni unchalik ham qiziqtirmaydi. Ya'ni, bunda ko'pincha oddiy odamlar axborot manipulyatsiyasiga duchor qilinadi. Masalan, qayerdadir tog' ko'chkisi yuz berib, unda ikki kishi halok bo'ldi, deylik. Xabarda aynan o'sha yo'qotish haqida so'z boradi. O'sha mamlakatning favqulodda vaziyatlarga mas'ul idorasi tomonidan aholining o'z vaqtida ogohlantirilgani, natijada minglab kishilarning hayoti saqlab qolingani, fojia yuz bergach, qutqaruvchilar voqea joyiga zudlik bilan yetib borib, deylik, yigirmata odamni qutqarib qolgani haqida bir og'iz ham aytilmasligi mumkin. Aksincha, ko'ruvlar sonini oshirish, obunachilarni ko'paytirish maqsadida fojia ko'lamini yanada bo'rttirib ko'rsatishga intilish kuzatiladi. Tarqatilayotgan axborot odamlar o'rtasida vahimani kuchaytirishga sabab bo'lib qolishi uni tarqatayotgan subyektni qiziqtirmaydi.

Yaqinda Xalqaro Qizil xoch va Qizil yarimoy jamiyatlari federatsiyasi "Zararli axborot tarqalishi davrida ishonchli-

lik, ishonch va insonparvarlik faoliyati" mavzusida dasturiy hisobotini e'lon qildi. Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish joizki, 1919-yili tashkil etilgan ushbu Federatsiya (1991-yilgacha Liga deb atalgan) tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlarga javob qaytarish bo'yicha dunyodagi eng yirik tashkilot hisoblanadi. BMT tuzilmalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi va 190 ta mamlakatdagi milliy jamiyatlarni birlashtiradi. Mamlakatimizda O'zbekiston Qizil Yarimoy jamiyati faoliyat yuritadi.

Biz yuqorida tilga olgan Hisobot AQSHning Michigan universitetida 60 ta davlat va yirik xalqaro tashkilotlarning yetakchi soha ekspertlari hamda tahlilchilari ishtirokida tayyorlangan. Hisobot shunchaki axboriy xarakterga ega emas, uning vositasida odamlarni favqulodda vaziyatlarda (zilzila, tog' ko'chkisi, qor ko'chkisi, sel, dovul-bo'ronlar va boshqa sharoitlarda) o'zini qanday tutish, undan keyin qanday harakatlarni amalga oshirish to'g'risida ishonchli axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu yerda yana bir nozik, ehtimol, eng muhim nuqta bor. Bu – favqulodda vaziyatlarda axborotlar bilan ishlash, ularni tarqatish, qabul qilish madaniyati bilan bog'liq. Ma'lumki, inson tabiatan shov-shuvga, favqulodda voqea-hodi-

salarga qiziquvchan bo'ladi. Axborot tarqatuvchilar esa bundan foydalanishga harakat qiladi. Kuzatuvlarga ko'ra, eng ko'p yolg'on va uydirmalar favqulodda vaziyatlar yuz berganda to'qiladi.

Ishonchsiz va ko'pincha manipulyativ xarakterdagi axborotlar tez fursatda tarqalib, noto'g'ri talqin qilinadi, bu esa tizimli tahdidlarning shakllanishiga olib keladi. Jumladan, uydirma, **birinchidan**, aholi o'rtasida qo'rquv va noaniqlik muhitini yaratib, yuqori xavotir va vaqt tig'izligi sharoitida odamlarni voqelikdan chalg'itadi.

Ikkinchidan, muammolarni hal qilish uchun birdamlik va jipslik zarur bo'lgan bir paytda ijtimoiy adovatni qo'zg'atib, jamiyatdagi parokandalikka sabab bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, inqirozga qarshi choralarga hamda tegishli institutlarning o'z asosiy vazifasini – hayotni saqlash va ofat oqibatlarini kamaytirish vazifasini bajarish qobiliyatiga putur yetkazadi. Oqibatda soha tuzilmalariga aholi ishonchi susayadi.

Tadqiqot mualliflari mazkur hisobotda shunday xulosani bayon etishdi: zararli axborotlar hajmining kengayishi bugungi kunda global inqirozli fenomenga aylandi, u nafaqat tang vaziyatlarda barqarorlikka xavf soladi, balki xavfsizlikni ta'minlash tizimiga ham zarar keltiradi. Chunonchi, feyk, ya'ni yolg'on, his-tuyg'ularga boy xabarlar tez tarqaladi va auditoriya tomonidan oson o'zlashtiriladi. Bunday sharoitda rasmiy xabarlar har doim ham ular bilan raqobatlasha olmaydi. Raqamli ustunlikka qaramay, dezinformatsiya shaxslararo muloqot mexanizmlari orqali oflayn makonga ham to'siqsiz kirib boradi va virusli xarakterga ega bo'ladi.

Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib, ma'ruza mualliflari xulosa qilganidek,

zararli axborotga qarshi kurashishni endi ikkinchi darajali vazifa deb hisoblab bo'lmaydi – bu muvofiqlashtirilgan, tezkor va samarali javobni talab etadigan o'ta dolzarb xavfsizlik masalasidir. Ekspertlar ishonchli axborotni zudlik bilan tarqatishni mish-mish, yolg'on, uydirma(feyk) larga qarshi kurashishning asosiy vositasi deb hisoblaydi. Bu odamlarni haqqoniy va xolis axborot bilan ta'minlash orqali ular orasida ortiqcha qo'rquv, vahimalarning oldini olish hamda qutqaruv faoliyatining samaradorligiga xizmat qiladi.

Zararli axborotga qarshi kurashish global xavfsizlik masalasidir.

Ushbu yo'nalishda mutaxassislar:

1) humanitar faoliyatni himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda ijtimoiy tarmoqlarda zararli narrativlarni erta aniqlash monitoringiga investitsiya kiritish;

2) yolg'on ma'lumotlarga tezkor radiya berish tizimlarini rivojlantirish va soha tuzilmalari uchun aniq yo'riqnoma xarakteridagi standartlarni ishlab chiqish;

3) ishonchni mustahkamlash choralarni favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishning umumiy rejalariga doimiy kiritib borish;

4) ta'lim, diniy va jamoat maskanlarida aholi bilan yaqin muloqot hamda qayta aloqa tizimini yo'lga qo'yish, odamlarning media barqarorligini oshirish. Bu ishga joylarda mahalla faollari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar, diniy arboblari, OAV va blogerlarni faol jalb etish;

5) qutqaruv xodimlari va ko'ngillilarning destruktiv axborotni aniqlash salohiyatini oshirish hamda xalqaro hamkorlik doirasida doimiy tajriba almashishni yo'lga qo'yish kabi chora-tadbirlarni tavsiya etadi.

Zafar TILAVOV,
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi magistranti

TO'RTLILIKLAR

Suv o'tmagan bemorga qand-u asal na hojat,
Qulog'i kar devorga bayt-u g'azal na hojat.
Qalbing kesak, ko'ngling tosh, ruhing so'nik bo'lsa gar,
Endi o'lim na hojat, endi ajal na hojat.

Jilg'alar o'zicha soydek ko'rinar,
Qashshoq ham ming qo'ylik boydek ko'rinar.
Har kimga azizdir yongan chirog'i,
Ko'ziga oftobdek, oydek ko'rinar.

Bu dunyoda ko'pdur el ila elat,
Birini ko'rmadim beayb, beillat.
Birovida til yo'q, birovida el,
Yana birovida na yurt, na millat.

Tozilar ko'paysa, bo'riga qiyin,
Qozilar ko'paysa, o'g'riga qiyin.
O'g'rilar topar-ku yo'lini qilib,
Egrilar ko'paysa, to'g'riga qiyin.

Bizni qiziqtirmas na shon, na shuhrat,
Na nishon, na unvon, na izzat-hurmat.
Shunchaki, o'tmishdan nomalar olib,
Kelajak avlodga yozayapmiz xat.

Bahslashib qoldik bir kun bir vajda,
Nega kishi joni og'rimas hajda?
Sira og'rimasdi hech kim hech mahal,
Har kun hajdagidek qilsa pok amal.

To'g'rilar tug'ilmas aslo o'g'ridan,
Qushdan qush tug'ilgay, bo'ri bo'ridan.
Nainki odamzod, hayvonot, hatto
Qiyshiq tutun chiqar qiyshiq mo'ridan.

Odam bor: har bitta qadami ibrat,
Odam bor: har bitta suxani hikmat.
Odam bor: olamning ko'rki naqshidir,
Odam bor: ulardan dunyo yaxshidir.

Kuyunib tutama dunyo ishiga,
Axir vafo qildi qay bir kishiga?
Yer yuzi ilmini uqib bilmassan,
Toki kirmaguncha uning ichiga.

Xudoyberdi KOMILOV



Hasan hovlisida havoning haroratidan hansirab, hol-sizlandi. Haroratdan himoyalalanish hissida hovuzdan hov-uchlab, hammayoqni ho'lladi.

Hayhot, hattoki, hovuzning hovuri ham hayratlanarli-ku!
Hasan hafsalasizlangan hamono hamsoyasi Hikmat:
– Hoy, Hasanjon, hormang..!
Hasan hozirjavob holda:

HARORATLI
HIKOYACHA

– Havo harorati hazilakammas-da. Haftadirki, huzur-halovatim huvullagan, hamsoya.

Hikmat hamon hazillasharkan:

– Ha-ya, hovling hammom-ku! Hademay Hasanjon haqiqiy – HABASHDA!

Hasan hamqishlog'ining haqoratomuz hijjilashidan ha-yajonlanib:

– Hoy, har holda hamsoyamiz-a?! Havoning haroratidan hamsoya Hikmatvoy ham habash hisobi!

Hikmat ham havo haroratidan hafsalasizmasmi:

– Hamsoya, hovliqib haqoratlashmaylik. Hali havo harorati haydaladi. Haqiqatdan ham haydaladi. Ha, haydaladi!

HAQNING HIKMATI – havo harorati haqida hamsoyalar hamkor-u hamnafaslikda hamfikrlashib hasratlashdilar.

Haytovur havo harorati haydaladi, hali...

Hakim KAMOLOV,
faxriy o'qituvchi



Kun mavzusi

Taraqqiyot kaliti yoki tafakkur sinovi?

Sun’iy intellekt ta’lim sohasida haqiqiy inqilob yasadi. Bugungi yoshlar endi faqat darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, onlayn kurslar, interaktiv dasturlar va virtual yordamchilar orqali bilim doirasini kengaytirmoqda.

Masalan, ChatGPT, Google yoki Khan Academy kabi platformalar orqali savollarga tezkor javob to-pishlari, murakkab mavzular haqida soddalashtirilgan tarzda tushuncha olishi mumkin. Bu esa mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi. Sun’iy intellekt na-faqat ma’lumot beruvchi vosita, balki ijodiy hamkor hamdir. Matn yozish, dizayn yaratish, musiqa bastalash yoki dastur tuzishda SI yordamidan foydalanayotgan yoshlar soni ortib bormoqda. Bu esa ularning tasav-vur doirasini kengaytirib, yangicha fikrlashga undaydi. Startaplar, raqamli loyihalar va innovatsion g’oyalari ko’payib borayotgani ham bejiz emas.

Kelajak kasblari ham texnologiyalar bilan cham-barchas bog’liq. Dasturlash, ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt yo’nalishlari yoshlar uchun istiqbolli sohalarga aylanib ulgurdi. Shu bilan birga, har qan-day yangilik singari sun’iy intellekt bilan ishlashning ham o’ziga xos muammolari mavjud. Eng katta xavf-lardan biri – yoshlarning tayyor javoblarga haddan tashqari o’rganib qolishidir. Bu esa mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko’nikmalari sustlashishiga olib ke-ladi.

Bundan tashqari, SI tizimlari har doim ham mu-kammal emas. Ba’zida noto’g’ri yoki to’liq bo’lma-gan ma’lumotlar taqdim etilishi mumkin. Agar yoshlar tanqidiy fikrlashni o’rganmasa, yolg’on axborot ta’si-riga tushib qolish xavfi mavjud. Texnologiyaga ortiq-cha bog’lanish jonli muloqotni kamaytiradi, ijtimoiy ko’nikmaning susayishiga sabab bo’lishi mumkin. Shuningdek, plagiat, akademik halollik masalalari ham

dolzarb bo’lib qolmoqda. Texnologiya inson tafak-kurining o’rnini bosa olmaydi. U faqat yordamchi vosi-ta bo’lib xizmat qiladi.

Yoshlarni sun’iy intellektidan to’g’ri va maqsadli foydalanishga o’rgatishda ota-ona va o’qituvchilar-ning roli beqiyosdir. Nazorat emas, balki yo’l-yo’riq ko’rsatish muhim. Yoshlar texnologiyani shunchaki ko’ngilochar vosita sifatida emas, balki bilim va rivojla-nish manbasi sifatida qabul qilishi kerak. Agar yoshlar undan ongli, me’yorida va mas’uliyat bilan foydalansa, sun’iy intellekt ularning kamoloti, jamiyat taraqqiyoti uchun ko’makchi bo’lib xizmat qiladi.

Demak, masala “foydalimi yoki zararli?” degan savolda emas. Asosiy savol – biz undan qanday foyda-lanayapmiz?

Umida YO’LDOSHOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Xorijiy tillarni o’qitish” kafedrasida
dotsenti, PhD

Palvannazirov Sardorbek Xamrobek o’g’lining 13.00.07 – Ta’limda menejment ixtisosligi bo’yicha “Umumta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishning bosh-qaruv mexanizmlarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko’chasi, 6-uy.
Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz, info@avloniy.uz

Kazakova Saxiba Abdurayimovnaning 13.00.07 – Ta’limda menejment ixtisos-ligi bo’yicha “Maktab maslahatchilarining tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko’chasi, 6-uy.
Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz, info@avloniy.uz

Umarova Nilufar Xasanovnaning 13.00.07 – Ta’limda menejment ixtisos-ligi bo’yicha “Umumiy o’rta ta’lim maktablari direktorlarining kommunikativ strategiyalarini rivojlantirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko’chasi, 6-uy.
Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz, info@avloniy.uz

Amindjonova Gulmira Karimjonovnaning 03.00.04 – Mikrobiologiya va viru-sologiya (biologiya fanlari) ixtisosligi bo’yicha “Gilos (Prunus avium) o’simligini kasallantiruvchi virusni ajratish, xususiyatlarini o’rganish va uning diagnostikasi” mavzusidagi(biologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruv-chi PhD.01/2025.27.12.B.04.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Razzakova Nazigul Boboqulovnaning 06.01.09 – O’simliklarni himoya qilish ix-tisosligi bo’yicha “Sug’oriladigan va lalmi maydonlarda no’xatning kasalliklari va ularga qarshi kurashda yangi preparatlarning samaradorligi” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy ken-gashning 2026-yil 11-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Botanika MFY, PSUEAITI ko’chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Xasanov Anvar Murotaliyevichning 06.01.09 – O’simliklarni himoya qilish ix-tisosligi bo’yicha “Farg’ona vodiysida bodom zararkunandalari bioekologiyasi va biotsenozda ular sonini boshqarish usullari” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fan-lari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Botanika MFY, PSUEAITI ko’chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Safarov Xoliqjon Xurshedovichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo’yicha “Qizil yassi temiratki bilan xastalangan bemorlarning profilakti-kasi va davolash usullarini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko’chasi, 3-uy.
Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

Murtazov Sherzod Isakbayevichning 05.05.01 – Energetika tizimlari va maj-mualari ixtisosligi bo’yicha “Elektr ta’minoti tizimlarining ishonchlilikini kompen-satsiyalovchi qurilmalarni qo’llash orqali oshirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublika-si Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.28.11.T.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do’rmon yo’li ko’chasi, 40-uy.
Tel/faks: (55) 520-01-52; e-mail: energetika_in@umail.uz

Ilashov Baxtinur Sherali o’g’lining 08.00.04 – Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti ix-tisosligi bo’yicha “Barqaror qishloq xo’jaligi amaliyotlarining ishlab chiqarish sa-maradorligiga ta’sirini iqtisodiy baholash (Samarqand viloyati misolida)” mavzusi-dagi(iqtisodiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar be-ruvchi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbed qo’rg’oni,
Amir Temur ko’chasi, 7-uy.

Tel.: (66) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz

Ismoyilov Azamat Isroyilovichning 08.00.04 – Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti ix-tisosligi bo’yicha “Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishda kooperatsiya munosa-batlari va uning iqtisodiy tahlili (fermer xo’jaliklari misolida)” mavzusidagi(iqti-sodiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbed qo’rg’oni,
Amir Temur ko’chasi, 7-uy.

Tel.: (66) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz

Muydinov Olim Bekmuratovichning 08.00.04 – Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti ixti-sosligi bo’yicha “Suv resurslaridan samarali foydalangan holda baliqchilikni rivojlan-tirish va samaradorligini oshirish” mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqot-lar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbed qo’rg’oni,
Amir Temur ko’chasi, 7-uy.

Tel.: (66) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz

Narquchqarova Rohila Ziyadullayevnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Peda-gogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha “Tasviriy san’at vositasida o’quvchilarda milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirishning pedagogik tizimi” mavzusi-dagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.28.11.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 8-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.


Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko’chasi, 6-uy.

Tel/faks: (55) 508-06-67; e-mail: avloniy@exat.uz; info@avloniy.uz



Millat mulki

BULUTLAR BAG'RIDAGI ULUG'VORLIK



Majmuaning osmon sari bo'y cho'zgan salobatli peshtoqlari oppoq bulutlar bilan yagona manzarani hosil qiladi. Moviy osmon bag'rida qad rostlagan ulug'vor inshootning har bir naqshi, har bir ustuni Sharq me'morchiligi ustalarining nozik didi va yuksak mahoratini namoyon etadi. Ustunlarning mutanosibligi, peshtoqlarning mahobati va keng hovlining sokinligi bu maskanga o'zgacha fayz bag'ishlaydi.

Majmuaga qadam qo'ygan ziyoratchilar yuzidagi xotirjamlik va qalbidagi ehtirom bu joyning naqadar muqaddas ekanini aks ettiradi. Bu yerga kelgan har bir inson o'zini tarix bilan yuzma-yuz turgandek his qiladi. Sukunat hukm surgan ushbu maskanda inson qalbi poklanadi, tafakkuri teranlashadi va ilm ahliga bo'lgan cheksiz hurmati yanada mustahkamlanadi.

Imom al-Buxoriy majmuasi yuksak me'morchilik namunasi bo'lib qolmay, xalqimizning boy ma'naviy merosi, ilmfan va ezgulik yo'lidagi sadoqatining yorqin timsoli hamdir. Bugun bu muqaddas maskan yurtimizga tashrif buyurayotgan minglab ziyoratchilar va sayyohlarni ulug'vor qiyofasi, sokin muhiti hamda ma'naviy nafasi bilan qarshi olib, qalblarda unutilmas taassurot qoldirmoqda.

Muhammadbobur MAHMARAYIMOV
olgan suratlar.



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6165. Tiraji-6250.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazetaning saytiga o'tish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

